



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni  
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
tarmoq markazi



# TA’LIMDA BAHOLASH NAZARIYASI VA METODOLOGIYASI

*moduli bo ‘yicha*

## O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



TOSHKENT-2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**TA'LIMDA BAHOLASH NAZARIYASI VA  
METODOLOGIYASI**

**moduli bo'yicha**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Malaka oshirish kursi yo'nalishi:**

**O'zbek tili va adabiyoti**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:**

**K.Jalilov** – katta o‘qituvchi

**Taqrizchilar:**

**B. Mengliyev** – pedagogika fanlari doktori, professor

**S. Normamatov** – filologiya fanlari doktori. ToshDO‘TAU

**E. Ushenmez** – filologiya fanlari doktori, professori  
Turkiya Istanbul universiteti

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

*(2020-yil 29-dekabrdagi 7-sonli qarori)*

**MUNDARIJA**

<b>T/r</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Sahifa</b>
I.	<b>ISHCHI O‘QUV DASTUR</b>	<b>3</b>
II.	<b>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI</b>	<b>11</b>
III.	<b>NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI</b>	<b>24</b>
IV.	<b>AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI</b>	<b>45</b>
V.	<b>KEYSLAR BANKI</b>	<b>93</b>
VI.	<b>GLOSSARIY</b>	<b>95</b>
VII.	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	<b>100</b>
VIII.	<b>TAQRIZ</b>	<b>104</b>

## I. ISHCHI O'QUV DASTUR



## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2016-yil 13-maydagи “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son, 2017-yil 7-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2909-son Qarori yo‘nalishlari mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Xorijiy davlatlarning yetakchi OTMlarida baholash nazariyasi (testologiya, pedagogik o‘lchovlar) pedagogikaning alohida bir yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan va bu yo‘nalishda magistrlar hamda fan doktorlari tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu yo‘nalishda maxsus ilmiy jurnallar chop etiladi va ilmiy tadqiqotlar e’lon qilinadi. Buning asosiy sababi - ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini valid va ishonchli pedagogik o‘lchov vositalari yordamida baholash ta’limning sifatini belgilovchi, o‘quvchilarning (talabalarning) fanga bo‘lgan ishtiyoqiga kuchli ta’sir qiluvchi asosiy unsurlardan biridir. O‘qituvchi ta’lim jarayoning muhim ishtirokchisi sifatida baholash jarayonini rejalashtira olishi hamda bu jarayonni ishonchli vositalar bilan ta’minlay olishi kerak. “Ta’limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” deb nomlangan mazkur

fan o‘qituvchilarni shu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun tayyorlashga qaratilgan.

### Modulning maqsadi va vazifalari

“Ta’limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” deb nomlangan mazkur fanni o‘zlashtirish natijasida tinglovchilar o‘z fanlari doirasida maqsadga mos, valid va ishonchli pedagogik o‘lchovlarni tanlay va qo‘llay olishni o‘rganadilar, baholash jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali ta’lim samaradorligini oshira oladilar hamda o‘z ta’lim muassasalarida bo‘lajak til va adabiyot o‘qituvchilarini baholash sohasidagi bilimlar bilan qurollantirish orqali umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘sha oladilar.

O‘quv fanida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

- tinglovchilarga baholash nazariyasining (testologiya, pedagogik o‘lchovlar) yuzaga kelishi, o‘rganish obyekti, asosiy tushunchalari, nazariyalarilari haqida ma’lumot berish;
- baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda mos o‘lchov vositalarini tanlash;
- baholash uchun tanlangan o‘lchov vositalarining validligi va ishonchliligin tahlil qilish usullari va metodkalari bilan tanishtirish;
- baholash maqsadiga mos yopiq va ochiq turdagи test topshiriqlarini yaratish jarayoniga qo‘yiladigan talablar bilan tanishtirish;
- yopiq va ochiq turdagи test topshiriqlarining sifatini tahlil qilish metodikalari haqida ma’lumot berish;
- test natijalarini yagona shkalaga keltirish, solishtirish va xulosalar chiqarish jarayonlari bilan tanishtirish.

## Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va layoqatlariga qo‘yiladigan talablar

“Ta’limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi**:

- pedagogik o‘lchovlar asoslarini, baholash nazariyasining (testologiya, pedagogik o‘lchovlar) mohiyati va asosiy tushunchalari; validlik tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari; ishonchilik tushunchasi va uning ahamiyati; klassik va amonaviy test azariyasining mohiyati; baholash (pedagogik o‘lchovlar) vositalarining sifatini tahlil qilish usullari; baholash nazariyasining dolzarb muammolarini ***bilishi kerak***;
- o‘z fanlari doirasida maqsadga mos valid va ishonchli pedagogik o‘lchovlarni tanlay va amaliyotda qo‘llay olish, baholash jarayonini rejalashtirish va o‘tkazish, bunda maqsadga mos vositalarni tanlash, baholash jarayonining ta’limga salbiy ta’sirini minimallashtirish ***ko‘nikmalari*** ga ega bo‘lishi kerak;
- baholash jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali ta’lim samaradorligini oshirish, baholash maqsadiga mos yopiq va ochiq turdagи test topshiriqlarini yaratish, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash, ularning sifatini tahlil qilish, test natijalarini qayta ishslash va xulosalar chiqarish ***malakalarini*** egallashi zarur.

### Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Ta’limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” kursi ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil ta’lim shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan; o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, va boshqa interfaol ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## Modulning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va uzviylici

“Ta’limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” moduli o‘quv rejasidagi pedagogik kvalimetriya, til va adabiyot ta’limining zamonaviy ilmiy-nazariy asosiy asoslari, zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan bog‘liqlikda va uzviylikda o‘qitiladi.

### Modulning andragogik ta’limdagi o‘rnini

“Ta’limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar baholash nazariyasining (testologiya, pedagogik o‘lchovlar) eng so‘nggi yutuqlari va yangi yo‘nalishlaridan xabardor bo‘ladilar, sohada olib borilayotgan ilg‘or tajribalar bilan tanishadilar hamda pedagogik o‘lchov vositalarini yaratish, qo‘llash va tahlil qilishga doir kasbiy layoqatga ega bo‘ladilar.

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat		
		Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1	Baholash nazariyasiga kirish. Baholash nazariyasining qisqacha tarixi.	2	2	
2	Testning sifatini baholash. Validlik.	2	2	
3	Ishonchlilik. Uning ko‘rsatkichlari.	2	2	

<b>4</b>	Test tushunchasi. Testning maqsadlari va turlari.	<b>2</b>		2
<b>5</b>	Klassik test va “savol-javob” nazariyasi, test topshiriqlarini yaratish jarayonlari.	<b>2</b>		2
<b>6</b>	Test topshiriqlari turlari. Turli tipdagi test topshiriqlarini yaratishda va qo‘llashda yo‘l qo‘yiladigan xatolar.	<b>2</b>		2
<b>7</b>	Til bilimini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari.	<b>2</b>		2
<b>Jami</b>		<b>14</b>	<b>6</b>	<b>8</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu. Baholash nazariyasiga kirish. Baholash nazariyasining qisqacha tarixi.** Baholash nazariyasi (testologiya) fanining mohiyati, asosiy tushuncha va tamoyillari. Baholash nazariyasi (testologiya, pedagogik o‘lchovlar) va uning asosiy tushunchalari: baholash, domen, konstrukt, test. Baholash ta’lim jarayonining muhim komponenti sifatida. Baholashning maqsadlari. Xulosalovchi baholash. Shakllantiruvchi baholash. Testning turlari.

**2-mavzu. Testning sifatini baholash. Validlik.** Validlik – baholashning sifatini belgilaydigan eng asosiy tamoyil sifatida -Validlik. Klassik test va “savol-javob ” nazariyasi, test topshiriqlarini yaratish jarayonlari. Test topshiriqlari turlari. Turli tipdagi test topshiriqlarini yaratishda va qo‘llashda yo‘l qo‘yiladigan xatolar. Til bilimini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari.

Validlik tushunchasining mohiyati. Validatsiya. Validlik tushunchasining rivojlanishi. Validlik turlari. Validlikning dalillari. Validlikka xavf soluvchi omillar.

**3-mavzu. Ishonchlilik. Uning ko‘rsatkichlari.** Ishonchlilik tushunchasi. Klassik test nazariyasi asoslari. Ishonchlilikni hisoblash usullari. Normal taqsimot. O‘lchashning standart xatosi. Tasniflash barqarorligi. O‘lchashning standart xatosini hisoblashning muqobil usullari.

## AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

**1 -mashg‘ulotlar. Test tushunchasi. Testning maqsadlari va turlari.** Testni yaratish bosqichlari. Yopiq va ochiq test topshiriqlarini yaratish. Yopiq test topshiriqlari turlari va ularni yaratishda yo‘l qo‘yiladigan xatolar. Yopiq test topshiriqlari yordamida yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni tekshirish. Ochiq test topshiriqlarini yaratish. Ochiq test topshiriqlari turlari va ularni yaratishda yo‘l qo‘yiladigan xatolar. Yopiq test topshiriqlari yordamida yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni, tekshirish. Shuningdek, amaliy va boshqa turdagи kompetensiyalarni tekshirish. Ochiq test topshiriqlari uchun baholash mezonlari: turlari, yaratish va qo‘llash.

**2-mashg‘ulot. Klassik test va “savol-javob” nazariyasi, test topshiriqlarini yaratish jarayonlari.** Klassik test nazariyasi asoslari va ularni o‘zlashtirish yo‘llari. Test yaratish jarayoni va unda ko‘zda tutilgan maqsadlar. Ishonchlilikni hisoblash usullari. Normal taqsimot. O‘lchashning standart xatosi. Tasniflash barqarorligi. O‘lchashning standart xatosini hisoblashning muqobil usullari.

**3-mashg‘ulot. Test topshiriqlari turlari. Turli tipdagi test topshiriqlarini yaratishda va qo‘llashda yo‘l qo‘yiladigan xatolar.** Statistik tahlilning ahamiyati va bu jarayonda test topshiriqlarining turlaridan foydalanish. Test topshiriqlarining turlariga ko‘ra sifat ko‘rsatchilari va ularni hisoblash usullari.

Mezonga mo‘ljallangan testlarda test topshiriqlari tahlili. Ulardagi yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar

**4 -mashg‘ulot. Til bilimini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari.** Testni o‘tkazish. Adolat va shaffoflik tamoyillari. Test natijalarini yagona shkalaga keltirish. O‘tish ballarini belgilash texnologiyalari.

## O‘QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o‘qitish;
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyatga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, undaadabiy ta’limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.

**II. MODULNI O'QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN  
INTERFAOL TA'LIM METODLARI**



### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S (strength)</b>	- kuchli tomonlari
<b>W (weakness)</b>	- zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O (opportunity)</b>	- imkoniyatlari
<b>T (threat)</b>	- to'siqlar

**Namuna:** Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
<b>W</b>	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg'ular tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi.
<b>O</b>	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi.
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

### “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

#### *Metodni amalga oshirish tartibi:*



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiyl muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

**Namuna:**

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamch iligi

**Xulosa:**

**“Keys-studi” metodi**

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minati bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> </ul>

	✓ muammolarni aniqlash
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sirlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**Keys. Kichikroq badiiy (she’riy) matnni tahlil qilish uchun** ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiylari va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

### ***Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:***

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

### “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiylardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

<b>F</b>	- <b>fikringizni bayon eting</b>
<b>S</b>	- <b>fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating</b>
<b>M</b>	- <b>ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring</b>
<b>U</b>	- <b>fikringizni umumlashtiring</b>

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna:**

**Fikr:** “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘sishma topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna:**

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
- D. Lotinchcha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi.



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma’no beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllanriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmiy matnda vazn va qofiya bo‘lmaydi.

### “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

#### Namuna:

“Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo'yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo'lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	

Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha	
Uslug	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi	

**Izoh:** Ikkinchı ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘sishma ma’lumot glossariyda keltirilgan.

### “Venn diagrammasi” metodi


**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligini va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligini jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna:**

**Ifoda shakllari bo'yicha (she'riy va nasriy nutq).**



**“Blits-o'yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalahtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

**Metodni amalga oshirish bosqichlari:**


1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturası					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o‘z yozuvida o‘qish tajribasi					
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					




Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1 • Talabalar ikki guruhga bo‘linadi
- 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqnini bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
- 3 • Har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
- 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi
- 5 • Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradi

### **III. NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI**



**1-MAVZU:**

## **BAHOLASH NAZARIYASIGA KIRISH. BAHOLASH NAZARIYASINING QISQACHA TARIXI.**

**REJA:**

- 1. Baholash nazariyasi (testologiya, pedagogik o'lchovlar) va uning asosiy tushunchalari: baholash, domen, konstrukt, test**
- 2. Baholash ta'lim jarayonining muhim komponenti sifatida.**

**Tayanch tushunchalar:** “Testologiya, domen, valid, measurement, error, oshibka izmereniya, educational measurement, pedagogicheskiye izmereniya, measurement error, kompetensiyalar, Stanford Achievement Test”.

**Baholash nazariyasi (testologiya, pedagogik o'lchovlar) va uning asosiy tushunchalari: baholash, domen, konstrukt, test.** Zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyasi ta'lim va uning sifatini modernizatsiyalashning ustivor yo'naliшlarini belgilaydi. Jamiyat va davlatning talablariga mos keladigan ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi darajasini ta'minlash maqsadida ta'lim muassasalari holatining monitoringi va diagnostikasini amalga oshirish, o'qitishning obyektiv natijalarini muntazam tahlil qilish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul jarayonlarida o'quvchi va abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini baholashda yuqori darajada xolislikni, haqqoniylilikni va tenglikni ta'minlash imkonini beradigan testlardan foydalanishga asoslangan pedagogik o'lchovlar alohida o'rin tutadi. Pedagogik o'lchovlar – pedagogika sohasi bo'lib, sinaluvchilarning o'quv faoliyati natijalarini o'lchash va baholashning usul va vositalarini ishlab chiqadi va amalda qo'llaydi.

Ta'lim sohasidagi test sinovi – bu testdan o‘tuvchilarning ma’lum o‘quv fanlari yoki ta’lim dasturlari bo‘yicha tayyorgarligi darajasini xolis baholash usulidir. Test topshiriqlarini bajarish intellektual faoliyat bo‘lib, u chegaralangan vaqtida va nazorat qilinadigan sharoitlarda amalga oshiriladi. Test sinovlari natijalarining xolisligi, birinchi navbatda, test topshiriqlarining sifatiga bog‘liq, shuning uchun topshiriqlarni ishlab chiqishda zamonaviy testologiya fani nazariyasi va amaliyotiga asoslangan talablarni inobatga olish zarur.

Shu o‘rinda eslatib o‘tamiz, testologiya - shaxsning turli xil xususiyatlarini maxsus ishlab chiqilgan testlar va ularni talqin qilish usullari yordamida baholash imkoniyatlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, testolog testologiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassisidir.

Zamonaviy testologiya yetuk amaliy fan bo‘lib, o‘zida test topshiriqlarini yaratishning asosiy tushunchalari va terminlarini, tamoyillarini, shakllarini (tuzilishini), mazmuniga, qiyinligiga qo‘yiladigan talablarni, test topshiriqlarini baholash shkalalarini, ya’ni test topshiriqlari bankini yaratish bo‘yicha faoliyatni belgilovchi meyorlarni o‘zida jamlaydi.

Hozirgi vaqtida ixtiyoriy ta’lim muassasasining har bir o‘qituvchisi o‘z faoliyatida o‘qitadigan fani bo‘yicha o‘quvchilarning bilim darajasini baholash usuli sifatida test o‘tkazishdan foydalanadi. Buning uchun u ilmiy asoslangan test topshiriqlarini Davlat ta’lim standartlari yoki Davlat talablariga mos ta’lim dasturi bo‘yicha ishlab chiqishi zarur. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari zamonaviy testologiya fani talablariga javob beradigan test topshiriqlarini ishlab chiqishi uchun maxsus tayyorgarlikni tashkil etish zarur.

Ta’limiy testlarning dolzarb muammolari bo‘yicha xorijiy davlatlarning tajribasi o‘rganish ko‘pgina davlatlarda (Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari) oxirgi o‘n yillik ichida test jarayoniga o‘zgartirish kiritish tendensiyasiga o‘tilayotganligini ko‘rsatdi. Bunda yopiq test topshiriqlari asosida o‘tkazilgan test sinovlari bilan chegaralanib qolmaslik, balki ochiq test

topshiriqlari asosida o'tkazilgan test sinovlari nafaqat o'quvchining bilimini, balki yechish usullarini, bayon etish mantiqini, fikrlash va boshqa qobiliyatlarini, shuningdek, amaliy topshiriqlarni bajarish imkonini berishi ta'kidlangan. Testologiyaning ilmiy-uslubiy asoslari, ularning tatbiqi va bu sohadagi xorijiy davlatlar tajribalari test o'tkazish (baholash) maqsadga ko'ra amalga oshirilishini talab etadi. Ya'ni qabul, monitoring, attestatsiya yoki boshqa jarayonlar uchun o'tkaziladigan test sinovlarida ko'zlangan maqsadga qarab ochiq yoki yopiq turdagi test topshiriqlarini qo'llash tavsiya etiladi.

Testologiya – shaxsning turli xil xususiyatlarini maxsus ishlab chiqilgan testlar va ularni talqin qilish usullari yordamida baholash imkoniyatlarini o'r ganuvchi fan bo'lib, testolog testologiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassisdir. Ta'limning asosiy maqsadi — o'quvchilarga fanlar bo'yicha nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda ma'nnaviy, axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, dunyoqarashlarini shakllantirish, kengaytirish va rivojlantirishdan iboratdir. Berilayotgan bilim, hosil qilayotgan ko'nikma va malakalar qay darajada o'zlashtirilganini aniqlash va baholash o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ularni aniqlashda esa turli forma va metodlardan foydalilanadi. Jumladan, savol va javoblar, suhbat, yozma ishlar kollekvium, seminar, sinov, imtihonlar o'tkazish va boshqalar. Yuqorida qayd qilingan forma va metodlarga nisbatan test topshiriqlari asosida sinovlar o'tkazish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlashda hamda baholashda ancha qulay va samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Testlardan foydalanish hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bu esa bilim, ko'nikma va malakalar qay darajada o'zlashtirilganini (qay darajada) va baholashning obyektiv miqdoriga bo'lgan zaruriyat bilan bog'liqdir. Pedagogik testlar ta'lim-tarbiya jarayonida bilimlar darajasini aniqlaydi.

Test tarixi juda olis o’tmishga borib taqaladi. Uning turlicha sodda va murakkab ko‘rinishlari har xil maqsadlarda foydalanib kelingan. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, test amaliyotining ommaviy ravishda qo‘llanilishi to‘g‘risida dastlabki aniq ma’lumotlar eramizdan avvalgi 2200 yillardagi Xitoy davlatiga borib taqaladi. Ushbu davrda Xitoyda ishga qabul qilish uchun hukumat organlari maxsus imtihon o‘tkazganlar. Ushbu imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgan fuqarolargina davlat xizmatiga olinganlar. Masalan, xat tashuvchi bo‘lib ishga kirish uchun fuqarolar yozish, arifmetika, otda chopish va kamondan o‘q uzish imtihonlarini topshirishlari kerak bo‘lgan. Britaniyada 1830 yillarda va Amerikada 1889 yillarda boshlangan davlat tashkilotlari tizimini yaratish va unga ishchilarni qabul qilish mexanizmlarini tashkil qilishda qadimgi xitoyliklarning usullari andaza sifatida qabul qilingan. Demak, insoniyat taraqqiyotiga kimyo, falsafa va boshqa ko‘plab sohalarda katta hissa qo‘shtan xitoyliklar bilim va qobiliyatlarni baholash sohasining ham ilk boshlovchilari ekan.

**Baholash ta’lim jarayonining muhim komponenti sifatida.** 20 asrga kelib Yevropa va Amerikada test amaliyoti juda rivojlanib ketdi. Ayniqsa insonning aqliy qobiliyatlarini baholashga mo‘ljallangan aqliy testlar (IQ tests) ga talab ortdi. Mazkur testlar xotira va tushunish kabi qobiliyatlarni baholashni ham o‘zida mujassamlashtirgan edi. Bu turdagи baholash vositalarining ommalashuviga muhim xissa qo‘shtan hodisa Fransiya Xalq ta’limi vaziri Alfred Binet tomonidan yaratilgan test bo‘ldi. Alfred Binet mazkur testdan mакtab darslarini yaxshi o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilarning qobiliyatlarini baholashda foydalangan edi. Keyinchalik Alfred Binet o‘z hamkor Teodor Saymon bilan hamkorlikda ushbu testdan turli maqsadlarda foydalana boshladi. Ularning tajribalari Amerikaga 1916 yilda kirib keldi va Stenford universiteti olimi Luis Terman bu baholash vositalarini yanada takomillashtirdi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, hozirgi zamонавиy aqliy testlardan biri Stenford-Binet testi deb nomланади.

Ta’lim muassasalariga qabul jarayonida testlar birinchi bo‘lib 1937 yilda AQShda foydalanildi. Shu yil SAT (Stanford Achievement Test) deb nomlangan test Braun, Yel va Princeton universitetlariga qabul jarayonida ishlatildi va uni 2000 nafardan ortiq abituriyent topshirdi. Shundan keyin AQShdag'i va dunyodagi boshqa oliy ta’lim muassasalari kirish imtihonlarida test usulini qo‘llashni o‘z amaliyotlariga kirta boshladilar.

Hozirda dunyodagi deyarli barcha davlatlarning oliy ta’lim muassasalariga qabul paytida test sinovlari o‘tkaziladi. Lekin har bir davlat o‘ziga xos yondashuvni qabul qilgan. Masalan, Angliyada markazlashgan test sinoviga qo‘srimcha ravishda universitetlar boshqa mezonlarga ham qaraydilar. Yaponiyada kirish testlari ikki bosqichda o‘tkaziladi: birinchisi markazlashgan usulagi test bo‘lib, unda barcha abituriyentlar qatnashadilar, ikkinchi bosqichdagi test sinovini esa oliy ta’lim muassasasining o‘zi o‘tkazadi. AQShda kirish testlarini mustaqil nodavlat baholash tashkilotlari o‘tkazadi. Universitetlar abituriyentlarning mana shu testlarda olgan ballarini qabul jarayonida bir mezon sifatida qabul qiladilar.

Hozirgi kungacha test baholash vositasi sifatida davr sinovidan o‘tdi va olimlar tomonidan o‘tkazilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar uning xususiyatlari va natijalaridan olinadigan xulosalar obyektiv ekanligini tasdiqladi. Natijada test nazariyasi va amaliyotini o‘rganuvchi Ta’limda baholash (Educational Assessment) deb nomlangan maxsus ta’lim yo‘nalishi vujudga keldi.

Rivojlangan davatlardagi bir necha universitetlar hozirda shu yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlaydi. Uni bitirgan kadrlar ta’limda baholash ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat tashkilotlarida yoki ta’lim muassasalarida faoliyat olib boradilar. Ularning vazifasi baholash ishlarining sifatli va talab darajasida o‘tkazilishini va natijalardan turli maqsadlarda to‘g‘ri foydalanilishini ta’minalashdan iborat.

Bugungi kunda yurtimizdagi deyarli barcha ta’lim muassasalari va ta’limga aloqador davlat tashkilotlari o‘z amaliyotlarida testning turli shakllaridan foydalanmoqdalar. Masalan, o‘quvchilar bilimini nazorat qilishda, pedagoglar attestatsiyasida, kollej va litseylarda o‘tkaziladigan kirish imtihonlarida va hokazo. Lekin ushbu jarayonlarda test topshiriqlarini ishlab chiqish, ularni aprobatiyadan o‘tkazish, test jarayonini tashkil etish va o‘tkazish, natijalarni e’lon qilish va natijalardan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha maxsus talablarga doim ham amal qilinmoqda deb bo‘lmaydi.

### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Baholash nazariyasi deganda nimani tushunasiz va va bu borada o’zingizni tanqidiy fikringiz qanday?
2. Testologyaning mohiyati nimalarda aks etadi?
3. Test orqali domen o‘lchanishiga misol keltiring.
4. Ta’limda baholash nazariyasining ahamiyati haqida o’z qarashlaringizni bayon eting.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

1. K. Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari (pedagogik o‘lchovlar, testologiya). Toshkent: Akademnashr, 2020.
2. Brookhart, S.M. (2014) How To Design Questions and Tasks To Assess Student Thinking, Alexandria, VA: ASCD, 2014.
3. Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.
4. Green, R. Statistical Analyses for Language Testers. New York, NY: Palgrave Macmillan, 2013.
5. Haladyna, T. and Rodriguez, M. Developing and Validating Test Items. London New York: Routledge, 2013.

**2-MAVZU:****TESTNING SIFATINI BAHOLASH. VALIDLIK.****REJA:**

- 1    Validlik tushunchasining rivojlanishi.**
- 2    Validlik turlari. Validlikning dalillari.**
- 3    Validlikka xavf soluvchi omillar.**

**Tayanch tushunchalar:** “Mezoniy (kriterial) validlik, prediktiv validlik, prediktiv validlik, solishtirma validlik, mazmuniy validlik, konstruktiv validlik, novalid, valid, Li Kronbax (Lee Cronbach) va Semuel Messik (Samuel Messick) validlik”.

**Validlik tushunchasining rivojlanishi.** Ta’lim jarayonida test biron-bir domenni, shu domen o‘z ichiga olgan konstruktarni o‘lchash uchun qo‘llaniladi. Ta’lim oluvchining bilim darajasini, unda ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini bevosita ko‘rish imkonini mavjud emas: o‘qituvchi bularni faqat bilvosita (savol-javob, kuzatish, topshiriqlar bajartirish orqali) ko‘rishi, o‘lhashi mumkin. Bunday o‘lchash natijasida chiqarilgan xulosalar asosida esa biron-bir shaxs yoki tashkilot (masalan, o‘qituvchi, ta’lim muasasasasi, ish beruvchi) tomonidan ma’lum bir qarorlar (masalan, diplom berish yoki bermaslik, o‘qishga yoki ishga qabul qilish yoki qilmaslik va hokazo) qabul qilinadi.

Qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishi uchun test asosida chiqariladigan xulosalar ham valid (asosli) bo‘lishi lozim. Validlik – testning sifatini belgilaydigan eng asosiy tushuncha. Validlik deganda testning maqsadidan kelib chiqqan holda, test natijalari yordamida chiqariladigan xulosalarning qay darajada ilmiy va empirik jihatdan asosli ekanligi tushuniladi.

Test natijasida chiqariladigan xulosalar qay darajada valid (asosli) bo‘lishi testning maqsadiga bog‘liq va bir vaziyatda valid xulosalar chiqarish imkonini beradigan test boshqa bir vaziyatda bunday imkonni bermasligi mumkin. Test natijasida chiqarilgan xulosalarning qay darajada asosli ekanligini aniqlashda testning maqsadi asosiy rol o‘ynaydi. Agar bitta test har xil maqsadlarda, har xil xulosalar chiqarish va har xil qarorlar qabul qilish maqsadida qo‘llaniladigan bo‘lsa, testning har bir qo‘llanilishi natijasida chiqariladigan xulosalar asosli ekanligiga ishonch hosil qilinishi lozim.

Test odatda biror-bir qaror qabul qilish uchun ishlatiladi, ya’ni test natijalari asosida ta’lim oluvchilar (o‘quvchilar, talabalar), ta’lim beruvchilar (o‘qituvchilar, ta’lim muassasasi) va hatto ta’lim tizimi uchun muhim bo‘lgan qarorlar qabul qilinadi. Bu qarorlar to‘g‘ri bo‘lishi uchun test natijasida chiqargan xulosalarimiz valid (asosli) bo‘lishi kerak. Xulosalar valid (asosli) deya olishimiz uchun esa dalillar kerak. Bu dalillar quyidagicha bo‘lishi mumkin :

- testning mazmuni bilan bog‘liq dalillar;
- test topshiruvchilarning test topshiriqlarini bajarishi jarayoni bilan bog‘liq dalillar;
- testning ichki strukturasi bilan bog‘liq dalillar;
- testning boshqa o‘zgaruvchilar bilan bog‘liqligi asosidagi dalillar;
- testning oqibatlari bilan bog‘liq dalillar.

Bu dalillar validatsiya jarayonida yig‘iladi. Validatsiya – testdan chiqarijadigan xulosalar asosli (valid) ekanligini tasdiqlovchi ilmiy dalillar keltirish jarayoni.

Demak, validlik:

- testning xususiyati emas: testning o‘zi valid (asosli) yoki novalid (asossiz) bo‘lmaydi, balki test natijasida chiqarilgan xulosalar valid (asosli) yoki novalid (asossiz) bo‘lishi mumkin;

- test natijalari interpretatsiyasi (talqiniga) bog‘liq – nima maqsadda test olgan edik va test natijalari nimani ko‘rsatyapti deb o‘ylaymiz?
- nisbiy tushunchadir: test natijasida chiqarilgan xulosalarimiz ma’lum bir darajada valid yoki novalid bo‘lishi mumkin, mutaxassislarining vazifasi esa bu xulosalarning validligi imkon qadar yuqori bo‘lishini ta’minlashdan iborat. Validlik pedagogik o‘lchovlarning (testologiyaning) eng asosiy tushunchasi bo‘lishiga qaramasdan, bu tushunchaning ta’rifi bo‘yicha mutaxassislar orasida yakdillik bo‘lman – fanning rivojlanishi davomida ta’riflar o‘zgarib borgan. Validlik tushunchasi tadrijini bir qancha bosqichlarga bo‘lish mumkin :
  - 1920-1950 yillar – “validlik” tushunchasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi;
  - 1950-1970 yillar – “validlik” tushunchasining fragmentatsiyalanishi (parchalanishi);
  - 1970-2000 yillar – “validlik” tushunchasining birlashtirilishi;
  - 2000 yildan keyin – “validlik” tushunchasining zamonaviy talqini.

**Validlik turlari. Validlikning dalillari.** “Validlik” tushunchasi dastlab paydo bo‘lganda uning ta’rifi quyidagicha bo‘lgan: “validlik – testning o‘lchanishi lozim bo‘lgan xususiyatni qay darajada o‘lchashidir”. Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, validlik dastlab testning xususiyati sifatida qaralgan, ya’ni testning o‘zi valid yoki novalid bo‘lishi mumkin deb hisoblangan va ushbu qarash 1970-1980 yillargacha davom etgan.

- 1950 yillarga kelib validlikning uch turi mavjud, degan qarash shakllandi:
- mezoniy (kriterial) validlik – testning biror-bir mezon bilan mosligi, o‘z navbatida mezoniy validlikning ikki turi mavjud deb qaralgan;
  - prediktiv validlik – testning belgilangan mezon bo‘yicha natijalarni bashorat qila olish qobiliyati. Masalan, oliy ta’lim muassasasiga kirish testlari bo‘lajak talabalarning tanlangan sohalarini qay darajada muvaffaqiyatli o‘zlashtira olishlarini bashorat qila olishi lozim. Agar kirish testlarida yuqori natijalarga

erishib o‘qishga qabul qilingan talabalar o‘qishda ham yuqori natijalarga erishsa, prediktiv validlik talablari bajarilgan hisoblanadi.

- solishtirma validlik – test natijasining belgilangan mezon bo‘yicha boshqa o‘lchovlar natijalari bilan mosligi. Masalan, o‘quvchilarning ingliz tilidan bilim darajasini baholaydigan test yaratsak, uning xuddi shu domenni o‘lchaydigan shu paytgacha mavjud boshqa test (masalan, IELTS yoki TOEFL imtihonlari) bilan solishtirma validligini aniqlashimiz mumkin. Buning uchun biz yaratgan testni IELTS imtihoni topshirgan guruhda sinab ko‘ramiz va test topshiruvchilarning bizning testimiz bo‘yicha natijalari IELTS testi bo‘yicha natijalariga o‘xhash bo‘lsa, solishtirma validlik talablari bajarilgan hisoblanadi.
- mazmuniy validlik – testning o‘lchanishi lozim bo‘lgan domen mazmuni bilan mosligi.
- konstruktiv validlik – testning o‘lchanishi lozim bo‘lgan konstruktni (xususiyatni) to‘g‘ri o‘lhashi.

Qanday maqsadda test o‘tkazilishi va testning qaysi turi ishlatilishidan kelib chiqqan holda validlikning ma’lum bir turi sharti bajarilishi kerak, degan tushuncha shakllandi. Misol uchun, prognostik testlar uchun prediktiv validlik, muvaffaqiyat testlari uchun mazmuniy validlik, psixologik testlar konstruktiv validlik shartlari bajarilsa kifoya, degan qarash hukmron edi.

1970-1980 yillarga kelib, hozirda pedagogik o‘lchovlar fanining mumtoz namoyondalari hisoblanadigan Li Kronbax (Lee Cronbach) va Semuel Messik (Samuel Messick) validlik – bu testning emas, balki test asosida chiqariladigan xulosalarning xususiyati degan fikrni ilgari surishgan. Ularning fikricha, testning o‘zi valid yoki novalid bo‘la olmaydi, chunki test – bu bir vosita, xolos. Bu vosita turli xil vaziyatlarda va turli maqsadlar uchun ishlatilishi mumkin. Misol uchun, skalpel mohir jarroh qo‘lida kimningdir hayotini saqlab qolishga xizmat qilsa, johil

qo‘lida esa kimningdir hayotiga nuqta qo‘yishi mumkin, lekin bunda ayb skalpelda emas, balki undan noto‘g‘ri maqsadda foydalanganlarda bo‘ladi.

2000 yillarga kelib “validlikning turlari” tushunchasidan voz kechildi va uning o‘rniga validlikning yuqorida qayd etilgan besh turdag'i dalili tushunchasi rasman qabul qilindi. Bu pedagogik o‘lchovlar bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar uchun rasmiy hujjat bo‘lib xizmat qiladigan “Ta’limiy va psixologik testlar standartlari”da ham o‘z aksini topdi. Endilikda test tuzish va o‘tkazish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar o‘z testlari asosida chiqariladigan xulosalar asosli (valid) ekanligini isbotlashi uchun validatsiya jarayonida besh xil keltirishlari talab qilinadi.

Muqobil javobli test topshiriqlaridan turli-tuman sohalardagi bilimni baholash uchun foydalanish mumkin. Muqobil javobli test topshiriqlari o‘quvchining oddiy bilimni yodda saqlab qolish kabi qobiliyatini baholashdan tortib, to quyidagi murakkab darajadagi qobiliyatlarni baholash uchun ishlatiladi:

- voqeа-hodisani tahlil qilish qobiliyati;
- ma’lum prinsiplarni yangi holatlarga tatbiq qilish qobiliyati;
- tamoyil va prinsiplarni tushunib yetish qobiliyati;
- fakt va shaxsiy fikr o‘rtasidagi tafovutni ajrata olish qobiliyati;
- voqeа-hodisalarning sabablari va oqibatlari o‘rtasidagi aloqadorlikni anglay olish qobiliyati;
- grafik va boshqa ko‘rinishdagi ma’lumotlarni tushunib yetish qobiliyati;
- ma’lumotlarning maqbulligi ustidan hukm chiqara olish qobiliyati;
- keltirilgan ma’lumotlar yuzasidan xulosalar ishlab chiqish qobiliyati;
- muammolar yechimini topish qobiliyati.

Bundan tashqari, muqobil javobli test topshiriqlarining qiyinlik darajasini muqobil javoblar shakli va tarkibini o‘zgartirish orqali boshqarish mumkin. Masalan, muqobil javoblar bir-biriga qancha o‘xhash tarzda ishlab chiqilsa, test topshirig‘ining javobini topish shuncha qiyinlashadi.

Odatda test topshirig‘iga javob berish o‘quvchidan yozma ko‘rinishdagi savolga javob berishdan ko‘ra ancha kam vaqt talab qiladi. Chunki o‘quvchi yozma ravishda javob berishi uchun, eng avvalo, o‘z fikrini jamlashi, uni keyin qog‘ozga ko‘chirishi lozim. Bunga esa ancha vaqt sarflashga to‘g‘ri keladi. O‘quvchi yozma savolga javob berishi uchun ketgan vaqt ichida bir nechta test topshirig‘iga javob berishi mumkin. Natijada test topshiriqlaridan foydalanish o‘qituvchiga ajratilgan vaqt ichida o‘quvchidan ma’lum bir fan doirasida ko‘proq savollarga javob olish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchining to‘plagan bali ko‘plab savollarga tayangan holda bo‘ladi. Bu o‘quvchining bahosini xolis belgilashga yordam beradi.

Sifatli tuzilgan muqobil javobli test topshirig‘i ishonchlilik borasida boshqa turdagи topshiriqlardan ancha ustun turadi. Masalan, muqobil javobli test topshirig‘ini baholashda qisqa javobni ko‘zda tutuvchi topshiriqlarni baholashdagi muammolarga duch kelinmaydi. Qisqa javobli topshiriqlarda o‘quvchilar imloviy xatoliklarga yo‘l qo‘yishi yoki savolga qisman to‘g‘ri javob berishi mumkin. Bu esa baholovchiga muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Muqobil javobli test topshiriqlariga esa o‘quvchilardan aniq javoblar olinadi. Bundan tashqari, insho va shu kabi yozma imtihonlarni baholashga salbiy ta’sir etuvchi inson omili bilan bog‘liq muammolar muqobil javobli test topshirig‘ini qo‘llash bilan bartaraf qilinishi mumkin. Masalan, baholovchi yozma ishlarni baholayotganda har bir ishga bir xildagi nazar bilan qaray olmasligi mumkin. Shuning uchun yozma ishlarni kamida ikkita mustaqil baholovchi tekshirishi lozim bo‘ladi. Muqobil javobli test topshirig‘ini baholashda esa barcha javoblar oddiy hisoblashlar orqali yoki maxsus texnologiya yordamida tekshiriladi. Bu inson omili bilan bog‘liq muammolarni yo‘qqa chiqaradi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning yozish tezligi bilan bog‘liq omillar ham yozma imtihonlar baholarining ishonchliligiga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Ba’zi o‘quvchilar tabiatan tez yoza oladilar, ba’zilari esa shoshmasdan yozishga o‘rganganlar. Bu ikkala turdagи o‘quvchilar bir xilda to‘g‘ri

javob berishlari mumkin. Lekin imtihon uchun vaqt chegaralangan bo'lsa, sekin yozadigan o'quvchi o'z fikrini to'liq ifoda etishga ulgurmay qolishi mumkin. Muqobil javobli test topshiriqlari qo'llanganda esa bunday muammo yuzaga kelmaydi.

Muqobil javobli test topshiriqlaridan foydalanilgan imtihonlarni bir paytning o'zida ko'plab o'quvchilar topshirishi mumkin. Ushbu imtihon natijalari maxsus texnologiyalar yordamida juda tez fursatda tekshirilishi va e'lon qilinishi mumkin.

O'qituvchilar test sinovidan o'quv jarayonidagi joriy nazorat ishlarida foydalanganlarida o'quvchilarning qaysi test topshiriqlariga noto'g'ri javob berayotganligiga e'tibor qaratib, kelajakda o'qitilayotgan fanning shu bo'limlariga kuchliroq e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilarni test topshirig'inining qaysi muqobil javobini belgilashlariga qarab, ularning nimalarda xato qilayotganligi haqida ham ma'lumot olishlari mumkin.

**Validlikka xavf soluvchi omillar.** Muqobil javobli test topshiriqlariga javobni o'quvchi o'zi mustaqil ravishda topish o'rniغا mavjud muqobillar orasidan tanlaydi. Oqibatda muqobil javobli test topshiriqlari o'quvchilarning quyidagi qobiliyatlarini baholash uchun layoqatsiz hisoblanadi:

- javobni aniqroq va chuqurroq tushuntirib berish qobiliyati;
- fikrlash jarayonini namoyon qilish qobiliyati;
- ma'lumotlardan o'z o'rniда va to'g'ri foydalanish qobiliyati;
- o'z fikrini tashkillay olish qobiliyati;
- ma'lum bir vazifani bajarish qobiliyati;
- original g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- misollar keltirish qobiliyati.

Ushbu qibiliyatlar yozma va og'zaki imtihon yoki boshqa usullar yordamida baholansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muqobil javobli test topshiriqlari bilan bog‘liq muammolardan yana biri – bu test topshiruvchilarning javoblarni taxminiy ravishda belgilab ball yig‘ishga intilishlaridir. Bu holat test ishonchliligining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Sifatli test topshirig‘ini ishlab chiqish juda mashaqqatli va vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Sifatli chalg‘ituvchilarni topish va ularni o‘z o‘rnida ishlatish test tuzuvchidan o‘ziga xos mahoratni talab qiladi. Ammo bunday mahorat tinmay izlanish, mashqlar va amaliyot orqali qo‘lga kiritilishi mumkin. Test topshiriqlari sifatini tekshirishning eng maqbul yo‘li bu ularni aprobatsiyadan o‘tkazishdir. Aprobatsiya test topshirig‘i to‘g‘risidagi barcha zarur ma’lumotlarni aniqlashga yordam beradi.

Test topshiriqlaridan foydalanishning yuqorida keltirilgan afzalliklari va kamchiliklari har bir o‘qituvchining doimo diqqat e’tiborida bo‘lishi lozim. Ayniqsa, ta’lim jarayonidagi sinovlarda ulardan foydalanishdan avval o‘qituvchi o‘z maqsadiga aniqlik kiritib olishi kerak. Ya’ni test usulidan foydalanishga qaror qabul qilishdan avval o‘qituvchi o‘quvchilarning qanday ko‘nikmalarini baholashni maqsad qilib olganligini aniq bilishi kerak.

Bundan tashqari, test usulidan foydalinishga qaror qabul qilish imtihon ta’lim jarayonining qanday bosqichida o‘tkazilishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Aytaylik, o‘qituvchi yillik yakuniy imtihonni o‘tkazmoqchi. Bu muhim imtihonda faqatgina test usulidan foydalanish noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki yakuniy imtihonda o‘quvchi olgan bilimining qay darajada mukammal ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi va test sinovi bunda o‘quvchining o‘ziga xos qirralarini aniqlashni chegaralab qo‘yishi mumkin. Test sinovi bu imtihonda faqat bir bo‘lim sifatida o‘tkazilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Lekin yuqorida ta’kidlanganidek, o‘qituvchilar testlardan joriy nazoratlarda foydalansalar o‘quvchilarga o‘qitilayotgan fanning ko‘plab mavzularini qamrab olgan test savollarini berishlari mumkin va bu o‘z navbatida qaysi mavzular o‘quvchilar tomonidan sust o‘zlashtirilganligi to‘g‘risida ma’lumot olishga yordam

beradi. Bundan tashqari, bu test har bir o‘quvchining shu paytgcha o‘tilgan mavzularning qancha foizini o‘zlashtirganligi to‘g‘risida ham ma’lumot berishi mumkin.

Umuman olganda, testlar o‘quvchilar bilimini bir-biriga solishtirish, ularni bilim va qobiliyatlarini bo‘yicha tabaqlash uchun mo‘ljallangan sinovlarda juda samarali va ishonchli baholash vositasi sanaladi. Ayniqsa, sinovda qatnashuvchi o‘quvchilar soni juda ko‘p bo‘lganda testlarning samaradorligi beqiyosdir. Bunga eng yorqin misol sifatida, albatta, oliv ta’lim muassasalariga kirish testlarini keltirish mumkin. Bu sinovda o‘quvchilar uchun bir xil sharoit va teng qiyinlikdagi test variantlari beriladi. Shu bois natijalarning xolisligi ta’minlanadi.

#### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Testologlarning vazifasi nimalardan iborat?
2. Test o‘lchov vositasi sifatida qanday ahamiyat kasb etadi?
3. testologiya nazariyasida bu bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalar majmui qaysi termin bilan bog’lanadi?
4. “Validlik - baholashning eng asosiy xususiyati”, - fikr haqidagi qarashlariningiz.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

1. K. Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari (pedagogik o‘lchovlar, testologiya). Toshkent: Akademnashr, 2020.
2. Brookhart, S.M. (2014) How To Design Questions and Tasks To Assess Student Thinking, Alexandria, VA: ASCD, 2014.
3. Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.
4. Green, R. Statistical Analyses for Language Testers. New York, NY: Palgrave Macmillan, 2013.
5. Haladyna, T. and Rodriguez, M. Developing and Validating Test Items. London New York: Routledge, 2013.

**3-MAVZU:****ISHONCHLILIK VA UNING KO’RSATKICHLARI.****REJA:**

- 1. Ishonchlilik tushunchasi. Klassik test nazariyasi asoslari.**
- 2. Normal taqsimot. O’lchashning standart xatosi. Tasniflash barqarorligi.**
- 3. Tasodifiy xatoliklar.**

**Tayanch tushunchalar:** “Domen darajasi, konstrukt, ishonchlilik validligi, klassik, aprobatсиya”.

**Ishonchlilik tushunchasi. Klassik test nazariyasi asoslari.** Test – bu o’lchov vositasi va bu vosita yordamida bevosita o’lchashning imkonni bo‘lmagan xususiyatlar (test topshiruvchilarda biron-bir domenning egallanganlik darajasi, biron-bir konstruktning shakllanganlik darajasi) o’lchanadi (baholanadi). Bu o’lchov natijalari asosida ma’lum bir xulosalarga kelinadi va qarorlar qabul qilinadi. Bu xulosalar asosli bo‘lishi uchun o’lchov vositasi (test) ma’lum bir talablarga javob bermog‘i lozim. Shunday talablardan biri ishonchlilik hisoblanadi.

Ishonchlilik – o’lchov vositasida olingan natjalarning barqarorligi.

Tasavvur qilaylik, bizda tarozi bor. Tarozimiz bitta jismni (masalan, toshni) o’lchaganda har safar har xil natija ko‘rsatsa, masalan, bir safar 1 kg, ikkinchi safar 1,5 kg, boshqa safar 0,75 kg ko‘rsatsa, bu tarozining ko‘rsatkichlari shubha uyg‘otadi. Shunga o‘xhash, bir guruhsda test olganimizda Aliyev 100dan 80 ball, Valiyev 60 ball, Salimov 40 ball olsa, ertasi kuni xuddi shu testdan Aliyev 40 ball, Valiyev 80 ball, Salimov 50 ball olsa, bu testimiz o’lchov vositasi sifatida ishonchli emas.

Ishonchlilik validlikning muhim bo‘lgan sharti, chunki validlikka dalillar keltirilayotganda testning ichki strukturasi bilan bog‘liq dalillar ishonchlilik

ko'rsatkichlarini ham o'z ichiga olishi lozim. Shu bilan birga, ishonchlilikning o'zi validlik uchun yetarli emas. Boshqacha qilib aytganda, ishonchlilik talablariga javob bermaydigan testlar validlik talablariga ham javob bermaydi, lekin testlarning ishonchlilik talablariga javob berishi – bu ular validlik talablariga ham javob beradi, degani emas. Test qanchalik ko'proq ta'sir kuchiga ega bo'lsa, uning ishonchliligi ham shunchalik yuqori bo'lishi talab qilinadi, chunki bunday test asosida ko'pchilik uchun muhim bo'lgan qarorlar qabul qilinadi.

**Normal taqsimot. O'lhashning standart xatosi. Tasniflash barqarorligi.**

Klassik test nazariyasida ishonchlilik o'lhashning xatosi tushunchasiga asoslanadi. Bu tushuncha o'rta asrlarda mashhur astronom Galileo Galilei tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, yulduzlarni kuzatayotgan turli astronomlar bir yulduzdan Yerning markazigacha bo'lgan masofani turlicha hisoblashlari mumkin: kimdir bu masofani asliga qaraganda ko'proq deb hisoblasa, kimdir kamroq deb hisoblashi mumkin. Agar barcha astronomlarning o'lchovlari qo'shilib, o'rtacha arifmetik qiymati olinsa, astronomlarning xatolari 0(nol)ga tenglashadi. Keyinchalik XIX asrda Karl Fridrix Gauss tomonidan bu holat matematik yo'l bilan isbotlangan.

Xuddi shunday, agar bir test topshiruvchi ayni bir test testni bir necha marta topshirsa, uning bu testda olgan natijasi har safar har xil chiqishi mumkin. Buning sabablari ko'p bo'lishi mumkin: test topshiruvchining test kuni o'zini qanday his qilganligi, test topshirilgan auditoriyadagi sharoitlar, test topshirish jarayonidagi nazorat va hokazo. Bunday omillar natijasida test topshiruvchining testda olgan bahosi uning haqiqiy bilim darajasidan yuqoriroq yoki pastroq bo'lishi mumkin.

Demak, test topshiruvchining test topshirganda olgan bahosi uning haqiqiy bahosi (bilimiga berilgan haqiqiy baho) va xatolikdan (turli tashqi omillarning test topshiruvchining bahosiga ta'siridan) iborat bo'ladi.

Buni quyidagicha formula bilan ifodalash mumkin :

$$X = T + E,$$

bunda:

$X$  = test topshiruvchining testda olgan bahosi,

$T$  = test topshiruvchining haqiqiy bahosi (bilimiga berilgan haqiqiy baho);

$E$  = xatolik (turli tashqi omillarning test topshiruvchining bahosiga ta'siri).

Demak, har qanday testda test topshiruvchining olgan bahosi uning haqiqiy bilimlar darajasini aks ettirmaydi, chunki bu bahoda xatoning ham ulushi mavjud. Masalan, bir guruh test topshiruvchilar adabiyotdan test topshirishdi. Aliyev 10ta test topshirig‘idan 7tasining javobini bilardi, lekin o‘scha kuni kasal bo‘lganligi sababli faqat 5ta topshiriqni to‘g‘ri yechdi. Demak, Aliyevning testda olgan bahosi 5 bo‘lsa, uning haqiqiy bahosi 7ga, xatolik esa -2ga teng:  $5 = 7 - 2$ . Valiyev esa 4ta test topsirig‘ining javobini bilardi, lekin tasodifan yana 3ta test topshirig‘ining javobini to‘g‘ri topdi va shuning uchun testda 10 balldan 7 ball oldi. Demak, Valiyevning testda olgan bahosi 7 bo‘lsa, uning haqiqiy bahosi 4ga, xatolik esa 3ga teng:  $7 = 4 + 3$ .

Tasavvur qilaylik, biz ayni testni ayni test topshiruvchilar guruhida cheksiz marta o‘tkazdik. Test topshiruvchilarimiz har safar har xil natija ko‘rsatishdi. Agar biz har bir test test topshiruvchining barcha natijalarining o‘rtacha arifmetik qiymatini olsak, bu uning haqiqiy bahosi bo‘ladi, chunki xatolik 0ga tenglashadi. Bu haqiqiy bahoning klassik modelida qabul qilingan asosiy tushunchalardan biridir.

Agar testning ishonchlilik darajasi yuqori bo‘lsa, test topshiruvchining har safar test topshirganda olgan baholari ( $X$ ) bir-biriga yaqin bo‘ladi va bu baholar uning haqiqiy bahosiga ( $T$ ) yaqin bo‘ladi. Amaliyotda test topshiruvchiga aynan bitta testni bir necha marta topshirtirib, olgan baholarining o‘rtacha arifmetik qiymatini chiqarish imkonи mavjud emas. Shuning uchun ham testning ishonchlilagini hisoblashning bir qancha nazariy modellari mavjud.

Shuni ham nazarda tutish lozimki, xatolik ikki xil bo‘lishi mumkin: tizimli (sistematik) xatolik va tasodifiy xatolik . Tizimli xatolik – bu o‘lchov natijalariga

doimo ta'sir qiluvchi xatolik. Masalan, agar testga yo'riqnomalar tushunarsiz tuzilgan bo'lsa, yoki chet tili testida tinglab tushunish uchun audiomatr sifatsiz yozilgan bo'lsa, bunday holatlar test topshiruvchilarning natijalariga ta'sir qiladi. Ya'ni, konstruktga bog'liq bo'lmasligi bunday omillar har safar shu testni ishlatganimizda konstruktni to'g'ri o'lchashga (baholashga) xalaqit beradi.

**Tasodify xatolik** – bu o'lchov natijalariga konkret bir vaziyatda ta'sir qiluvchi xatolik. Masalan, qaysidir safar test olayotganimizda auditoriyada shovqin bo'lsa, yoki test topshiruvchilar charchagan bo'lishsa, test uchun kerakli audiomatnni eshittirish uchun texnika yaxshi sozlanmagan bo'lsa, bunday omillar test topshiruvchilarning natijalariga ta'sir qiladi. Biroq xuddi shu testni keyingi safar ishlatganimizda bunday omillar mavjud bo'lmasligi mumkin (auditoriyada jumlik ta'minlangan, test topshiruvchilar charchamagan, texnika yaxshi sozlangan va hokazo). Aynan bir testni aynan bir test topshiruvchilar guruhida bir necha marta ishlatib, natijalarning o'rtacha arifmetik qiymati olinganda, tasodify xatolik 0(nol)ga tenglashadi, biroq tizimli xatolik saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. Tizimli xatoliklarni aniqlash va kamaytirish uchun testni tuzish, ishlatish va natijalarni hisoblash bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilish hamda validlik talablariga rioya qilish lozim bo'ladi.

Testologiya nazariyasiga asosan har bir test topshirig'i ishlatilishdan avval, albatta, sinovdan, ya'ni aprobatniyan o'tkazilishi shart. Bunday sinovda kamida 50 kishi ushbu test topshirig'iga javob berishi kerak bo'ladi va natijalar ushbu javoblarga asosan tahlil qilinadi. Aslida testologiya sohasidagi ayrim mutaxassislar aprobatniyan ishtirok etadiganlarning soni kamida 30 ta bo'lsa, yetadi deb hisoblaydilar. Ammo ishonchli natijalarni olish uchun qatnashchilar soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, aprobatniyan haqiqiy testdagiga aynan o'xshash bo'lgan shart-sharoit tashkil qilinishi lozim va qatnashchilar kelajakda shu testni topshirish ehtimoli yuqori bo'lgan o'quvchilar bo'lishi kerak.

Aprobatsiya nima maqsadda o'tkaziladi? Test topshirig‘ini aprobatsiyadan o'tkazishdan asosiy maqsad – uni o‘quvchilar bilimini baholashda qanday ishlayotganligini tekshirishdan iborat. Aprobatsiya natijasida test topshirig‘i to‘g‘risida quyidagi qimmatli ma'lumotlar olinadi:

- test topshirig‘ining qiyinlik darajasi;
- chalg‘ituvchi javoblarning qanday ishlayotganligi;
- test topshirig‘ining bilimli va bilimsiz o‘quvchilar o‘rtasidagi farqni qay darajada ko‘rsatib berayotganligi (test topshirig‘ining diskriminatsion xususiyati);
- test variantining umumiyligi qiyinlik darajasi.

Test topshiriqlarining statistik ko‘rsatkichlari testlardan foydalanishda katta ahamiyatga ega. Hozirgi paytda ta’lim tizimida foydalanilayotgan testlar uchun bu ko‘rsatkichlar, albatta, hisobga olinishi lozim. Aks holda testlarning obyektivligiga va ko‘zda tutilgan natijalarni berayotganligiga hech kim kafolat bermaydi.


### ***NAZORAT SAVOLLAR***

1. Klassik test nazariyasi asoslari haqida o`z fikringizni bildiring.
2. O‘lchashning standart xatosiga misollar keltiring.
3. Tasodifiy xatoliklar nima.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

- 1 K. Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari (pedagogik o‘lchovlar, testologiya). Toshkent: Akademnashr, 2020.
- 2 Brookhart, S.M. (2014) How To Design Questions and Tasks To Assess Student Thinking, Alexandria, VA: ASCD, 2014.
- 3 Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.
- 4 Green, R. Statistical Analyses for Language Testers. New York, NY: Palgrave Macmillan, 2013.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**



**1-MAVZU:****TEST TUSHUNCHASI. TESTNING MAQSADLARI VA  
TURLARI.****REJA:**

- 1. Baholashning maqsadlari. Xulosalovchi baholash. Shakllantiruvchi baholash.**
- 2. Testning turlari.**

**Tayanch tushunchalar:** “Ohibka izmereniya, measurement error, domen, Extended-Response Item – ERI, Short-Answer Item – SRI, Performance Item – PI, spetsifikatsiyasida”.

“Test” so‘zi mamlakatimizga kirish imtihonlarida muqobil javobli test topshiriqlaridan foydalanadigan imtihonlar joriy qilinishi bilan birga kirib keldi. Lekin ingliz tilidan kirib kelgan bu so‘zga hozirgacha aniq ta’rif berilmagan. Bu so‘z hozirda kirish imtihonining o‘ziga nisbatan ham va unda ishlatiladigan alohida muqobil javobli test topshiriqlariga nisbatan ham qo‘llanilmoqda. Test so‘zining “imtihon” ma’nosida qo‘llanilishi to‘g‘ri. Masalan, “bugun Andijon davlat universitetida test o‘tkazildi” deyilsa, noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Lekin ba’zida test so‘zidan testdagi alohida topshiriqqa nisbatan ham foydalanilishi, masalan, “30 ta testdan 28 tasiga javob berdim” deyilishi, to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shuning uchun terminlarga aniqlik kiritib olish lozim.

Ingliz tilida “test” so‘zi “shaxsning bilimlari, qobiliyatları yoki ko‘nikmalarini baholash uchun ishlatiladigan savollar, masalalar yoki amaliy mashg‘ulotlar to‘plami”ni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, test deganda faqat muqobil javobli topshiriqlarni o‘zida jamlagan baholash vositasi tushunilmasligi lozim. Uning tarkibiga boshqa baholash usullarini kiritish mumkin ekan. Masalan, ifodali o‘qish, yozma ish, og‘zaki savol-javob va hokazo. Bu jihatdan olib qaraganda, “test” so‘zi

o‘zbek tilidagi “baholash” va “imtihon” so‘zlariga sinonim hisoblanadi. Lekin “baholash” so‘zi odatda ancha keng ma’noda ishlatiladi. Binobarin, test sinovi baholashning bir turi hisoblanadi.

“Test topshirig‘i” deganda esa testning tarkibiga kirgan va muqobil javoblari berilgan yoki boshqa turdagи alohida topshiriq tushuniladi. Kirish imtihonlarida hozirda faqat muqobil javobli test topshiriqlari qo‘llanilmoqda. Aslida test tarkibiga ochiq turdagи (muqobil javoblari berilmagan) savol, insho, og‘zaki savol-javob va boshqa ko‘plab topshiriqlarni kiritish mumkin.

Terminlarga aniqlik kiritib olish juda muhim, chunki bu ta’lim faoliyatida foydalilaniladigan turli baholash usullarini o‘rganishda ayrim chalkashliklarni oldini olishga yordam beradi.

Test (baholash) – bu o‘quvchining bilimlari, qobiliyatları yoki ko‘nikmalarini baholash uchun ishlatiladigan savollar, masalalar yoki amaliy mashg‘ulotlar to‘plami.

Test topshirig‘i – bu testning tarkibiga kirgan har qanday topshiriq turi.

Baholash nazariyasi va testologiya fanida hozirda qabul qilingan ta’rifga ko‘ra, test - bu baholanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarning (testologiya nazariyasida bu bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalar majmui “**domen**” deyiladi) sinaluvchilarda (test topshiruvchilarda) qay darajada shakllanganligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga asos bo‘ladigan topshiriq yoki topshiriqlar yig‘indisi. Shu o‘rinda testning quyidagi muhim jihatlarini hisobga olish lozim:

- 1) Test - bu **o‘lchov vositasi**, ya’ni test orqali domen o‘lchanadi. Masalan, chizg‘ich yordamida uzunlik, tarozi yordamida og‘irlik o‘changaniday, test yordamida bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalar yig‘indisi, ya’ni domen o‘lchanadi (shuning uchun ham testologiya fani ingliz tilidagi adabiyotlarda “educational measurement” – “pedagogicheskiye izmereniya” – “pedagogik o‘lchovlar” deb ataladi). Lekin, chizg‘ich yordamida uzunlikni, tarozi yordamida

og‘irlikni bevosita o‘lchash mumkin bo‘lsa, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarni, ya’ni baholanishi lozim bo‘lgan domenni bevosita o‘lchashning yo‘q, bu domen **bilvosita** o‘lchanishi lozim. Har qanday bilvosita o‘lchovda esa **o‘lchov xatosi** (“measurement error” – “oshibka izmereniya”) bo‘ladi. Testologlarning vazifasi - bu o‘lchov xatosini minimallashtirish, ya’ni testning **ishonchliligini** oshirish.

2) Test o‘lchov vositasi ekan, testdagi topshiriqlar baholanishi lozim bo‘lgan domenning shakllanganlik darajasi haqida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun **mos bo‘lishi** lozim. Masalan, chizg‘ich yordamida og‘irlikni, tarozi yordamida uzunlikni o‘lchab bo‘lmaganiday, noto‘g‘ri tanlangan test, ya’ni o‘lchov vositasi baholanishi lozim bo‘lgan domen haqida to‘g‘ri xulosa chiqarishga asos bo‘la olmaydi. Test vositasida domen haqida chiqarilgan xulosalarning qay darajada to‘g‘riliqi **validlik** deyiladi. Zamonaviy testologiya bo‘yicha olimlarning olimlarning yakdil fikricha, **validlik - baholashning eng asosiy xususiyati**. Agar test o‘lchanishi lozim bo‘lgan domen haqida **asosli, ya’ni valid xulosalar** chiqarishga asos bo‘la olmasa, bunday testlardan foydalanish mumkin emas. Masalan, adabiyot testidan maqsad o‘quvchi badiiy asarlarni qay darajada tushunishini baholash bo‘lsa, bu maqsadga yozuvchilarning biografiyasidan ma’lumotlarni yoki asarlardagi detallarni eslab qolishni tekshiradigan testlar yordamida erishib bo‘lmaydi. Yoki ingliz tili testidan maqsad o‘quvchining qay darajada tildan muloqot vositasi sifatida turli vaziyatlarda foydalana olishini tekshirish bo‘lsa, grammatika testlari orqali bu maqsadga erishib bo‘lmaydi. Demak, test vositasida chiqariladigan xulosalarning validligi birinchi navbatda testning maqsadiga bog‘liq. Bir maqsad uchun valid xulosalar chiqarishga imkon beradigan testlar boshqa bir maqsad uchun valid xulosalar chiqarishga imkon bermasligi mumkin. Masalan, ingliz tilidan grammatik testlar o‘quvchining grammatik qoidalarni qay darajada o‘zlashtirganligini tekshirish uchun valid bo‘lsa, o‘quvchining tildan qay daraja turli hayotiy, akademik va professional

vaziyatlarda foydalana olishini tekshirish uchun valid bo‘la olmaydi. Testologlarning vazifasi - **maqsaddan kelib chiqqan holda vositani to‘g‘ri tanlash** orqali test natijasida chiqariladigan **xulosalarning validligini ta’minlash**. Maqsaddan kelib chiqqan holda, test bir yoki bir nechta topshiriqdan iborat bo‘lishi mumkin.

Testologiyada topshiriqlarni ikkita katta guruhga ajratish qabul qilingan: yopiq testlar va ochiq testlar. **Yopiq testda** test topshiruvchi berilgan javob variantlaridan bittasini **tanlaydi**. **Ochiq testda** test topshiruvchi javobni **o‘zi yaradi**.

Yopiq testlar o‘z navbatida quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) bitta to‘g‘ri javobni talab qiluvchi test topshirig‘i (Multiple-Choice question – MCQ);
- 2) berilgan ma’lumotning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini topishni talab qiluvchi test topshirig‘i (True-False Item – TFI);
- 3) berilgan ma’lumotlarni moslashtirishni talab qiluvchi test topshirig‘i (matching items – MI).

Misollar:

- 1) bitta to‘g‘ri javobni talab qiluvchi test topshirig‘i (Multiple-choice question – MCQ):

*Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida qo'llanilgan kompozitsion usulni toping:*

- |                         |                  |
|-------------------------|------------------|
| A) hikoya ichida hikoya | B) retrospektiva |
| C) perspektiva          | D) fikrlar oqimi |
- 2) berilgan ma’lumotning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini topishni talab qiluvchi test topshirig‘i (True-False Item – TFI):

*Quyidagi hukm to‘g‘ri (T) yoki noto‘g‘riligini (N) aniqlang.*

*Ikkinchi jahon urushi Germaniyaning 1941 yil 22 iyunda SSSRga hujum qilishi bilan boshlandi.*

3) berilgan ma'lumotlarni moslashtirishni talab qiluvchi test topshirig'i (matching items – MI):

*Berilgan asarlarni (1-3) janrlar (A-D) bilan moslashtiring:*

<i>Asarlar (1-3)</i>	<i>Janrlar (A-D)</i>
----------------------	----------------------

- |                      |                         |
|----------------------|-------------------------|
| 1) "Hamlet"          | A) <i>she'riy roman</i> |
| 2) "Yevgeniy Onegin" | B) <i>qasida</i>        |
| 3) "Shohnoma"        | C) <i>doston</i>        |
|                      | D) <i>fojia</i>         |

Ochiq testlar o‘z navbatida quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) qisqa (bir yoki bir necha so‘z yoki raqam, jumla, bir nechtagacha gapdan iborat) javobni talab qiladigan test topshirig'i (Short-Answer Item – SRI);
- 2) kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i (Extended-Response Item);
- 3) amaliy javobni (masalan rasm chizish, kimyoviy tajriba o‘tkazish, kompyuter dasturi yozish, texnika vositasini boshqarib ko‘rsatish va hokazo) talab qiladigan test topshirig'i (Performance Item – PI).

Misollar:

- 1) qisqa javobni talab qiladigan test topshirig'i (Short-Answer Item – SRI):

*Berilgan gapda noto‘g‘ri qo‘llanilgan kelishik qo‘srimchasi qatnashgan so‘zni to‘g‘rilab yozing:*

*Abdurashid bir menga, bir unga qaradi-da, qo‘lidagi tugunning tashlab yubordi.*

- 2) kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i (Extended-Response Item – ERI):

*Fitratning “Abulfayzxon” dramasida Abulfayzxon obrazidagi qarama-qarshiliklarni ochib bering. Fikrlaringizni dramadan misollar bilan asoslang.*

- 3) amaliy javobni talab qiladigan test topshirig'i (Performance Item – PI):

*Paskal dasturlash tilida “SALOM!” matnini kompyuter ekranida 5 daqiqa ko‘rsatib keyin o‘chiradigan dastur tuzing.*

Har bir turdag'i test topshirig'ining o'z qo'llanish o'rni, ijobiyligi va salbiyligi tomonlari mavjud. Test topshirig'ining tegishli turini tanlashda birinchi navbatda maqsaddan kelib chiqish lozim. Masalan, maqsad xorijiy tilda norasmiy xat yozish qobiliyatini baholash bo'lsa, buning uchun eng maqbul test topshirig'i turi - kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i. Maqsad adabiyotda she'riy vaznlarni ajrata olishni baholash bo'lsa, buning uchun eng maqbul test topshirig'i turi - berilgan ma'lumotlarni moslashtirishni talab qiluvchi test topshirig'i. Maqsad tarixga oid muhim faktlarni bilishni baholash bo'lsa, buning uchun eng maqbul test topshirig'i turi - berilgan ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'riliгини topishni talab qiluvchi test topshirig'i yoki bitta to'g'ri javobni talab qiluvchi test topshirig'i. Demak, qaysi test topshirig'i turini tanlash maqsadga - qaysi ko'nikmani baholash (o'lchash) talab qilinishiga bog'liq. Baholanadigan ko'nikmalar va mos keluvchi test topshirig'i turlari test topshiriqlari tafsilotida (spetsifikatsiyasida) konkret ko'rsatilishi lozim.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

1. K. Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari (pedagogik o'lchovlar, testologiya). Toshkent: Akademnashr, 2020.
2. Brookhart, S.M. (2014) How To Design Questions and Tasks To Assess Student Thinking, Alexandria, VA: ASCD, 2014.
3. Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.
4. Green, R. Statistical Analyses for Language Testers. New York, NY: Palgrave Macmillan, 2013.
5. Haladyna, T. and Rodriguez, M. Developing and Validating Test Items. London New York: Routledge, 2013.

## 2-AMALIY MASHG‘ULOT:

### **KLASSIK TEST VA “SAVOL VA JAVOB” NAZARIYASI, TEST TOPSHIRIQLARINI YARATISH JARAYONLARI.**

#### REJA:

- 1. Testni yaratish bosqichlari.**
- 2. Yopiq test topshiriqlarini yaratish.**

**Tayanch tushunchalar:** “Kodifikator, paragraflari, antonimligi, omonimligi, punktuatsiya”.

**1-topshiriq.** Test yaratish bosqichlarini sanang. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini izohlang.

**2-topshiriq.** Quyida keltirilgan test spetsifikatsiyalarini tahlil qiling. Spetsifikatsiyalar asosida tuziladigan test variantlari qay darajada validlik talablariga javob bera oladi?

*1-spetsifikatsiya*

Ona tili va adabiyot fani mazmuni tarkibi va abituriyentlar  
tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar KODIFIKATORI va test  
topshiriqlari

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Davlat test markazining 2018 yil 1-fevraldagи 01-42-son buyrug`i bilan  
tasdiqlangan*

**2018-yilda oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga qabul test sinovini  
o‘tkazish uchun ona tili va adabiyot fani mazmuni tarkibi va abituriyentlar  
tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar**

**KODIFIKATORI**

**1-bo‘lim. Ona tili va adabiyot fani bo‘yicha qabul test sinovida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi**

Kodifikator jadvalining birinchi ustunida bo‘lim kodi, ikkinchi ustunida mazmunning asosiy bo‘lim qismlari (paragraflari) kodi ko‘rsatilgan. Uchinchi ustunida test sinovlarida tekshiriladigan bo‘lim qismi mazmuni keltirilgan.

<b>Bo‘lim kodi</b>	<b>Nazorat qilinayotgan element kodi</b>	<b>Test sinovida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi</b>
<b>1</b>	<b>1.1</b>	<p><b>Til haqida umumiy ma’lumot. Fonetika</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- dunyo tillari, turkiy tillar oilasi va ular orasida o‘zbek tilining tutgan o‘rni, adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari, hozirgi o‘zbek adabiy tili tushunchasi, uning shakllari va xalq shevalari o‘rtasidagi munosabatni bilish talab etiladi;</li> <li>- tovush va fonema, tovushlar tizimi, unli va undosh tovushlar, ularning tasnifi, urg‘u, bo‘g‘in, ohang va uning nutqdagi ahamiyati, tovush va fonemalarning xususiyatlari, ularning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari, nutq</li> <li>- tovushlarining uch tomoni, xususan, ma’no farqlash vazifasini bilish talab etiladi;</li> <li>- urg‘uning o‘zbek tilidagi o‘rni, urg‘u olmaydigan qo‘sishimchalar, o‘zlashma so‘zlardagi urg‘uning barqaror o‘rni, urg‘uni fonetik jihatdan to‘g‘ri qo‘ya bilish, bo‘g‘in va uning turlarini bilish talab etiladi;</li> <li>- fonetik hodisalarini bilish talab etiladi.</li> </ul>

<b>2</b>	<b>2.1</b>	<b>Grafika va orfografiya</b>
		<p>- so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi bilan bog‘liq orfografik me’yorlar, ya’ni unli va undosh harflar imlosi, asos va qo‘sishimchalar imlosi, qo‘sib va ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, bosh harflar imlosi, bo‘gin ko‘chirish qoidalarini bilish talab etiladi.</p>
<b>3</b>	<b>3.1</b>	<b>Leksikologiya va frazeologiya</b>
		<p>- so‘z va uning ma’nolarini, so‘zning atash va grammatik ma’nolarini, so‘z va leksema haqida bilish talab etiladi; - so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarini, ma’no ko‘chish usullari (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik)ni bilish va ulardan nutqda to‘g‘ri foydalanish talab etiladi; - so‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari (omonimlik, sinonimlik, antonimlik, paronimlik)ni bilish talab etiladi;</p> <p>- barqaror birikmalar va ularning turlarini bilish talab etiladi.</p>
<b>4</b>	<b>4.1</b>	<b>Morfemika (so‘z tarkibi). So‘z yasalishi.</b>
		<p>- so‘z va uning tarkibi, asos va qo‘sishimcha (yetakchi va ko‘makchi morfemalar), qo‘sishimchalarning vazifasiga ko‘ra turlari, qo‘sishimchalar shakldoshligi (omonimligi), ma’nodoshligi (sinonimligi), zid ma’noliligi (antonimligi) yuzasidan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi;</p> <p>- so‘zlarning yasalish usullari, so‘z yasalishi tuzilishi, yasashga asos, yasovchi vositalarni bilish talab</p>

		etiladi.
<b>5</b>		<b>Morfologiya</b>
		<b>Mustaqil so‘z tarkumlari va ularning uslubiy xususiyatlari</b>
	<b>5.1</b>	<p>-so‘z tarkumlari va ularning turlari, ismlar guruhiiga mansub so‘zlar va ularning grammatik xususiyatlari, ismlarning lug‘aviy shakllari, ismlarning va fe’llarning munosabat shakllarini bilish talab etiladi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ot va uning leksik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, otlarning ma’no turlari, atoqli va turdosh otlar, aniq va mavhum otlar, otlarning yasalishi, tuzilishiga ko‘ra turlarini bilish talab etiladi;</li> <li>- sifat va uning leksik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, sifatlarning ma’no turlari, asliy va nisbiy sifatlar, sifatlarning yasalishi, tuzilishiga ko‘ra turlari, sifatlarning otlashishi, sifatlarning daraja shakllarini bilish talab etiladi;</li> </ul>
	<b>5.2</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ravish va uning leksik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, ma’no turlari, otlashishi, yasalishi, tuzilishiga ko‘ra turlarini bilish talab etiladi;</li> <li>- son va uning leksik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, ma’no turlari, otlashishi, tuzilishiga ko‘ra turlari, o‘lchov (hisob) so‘zlarni bilish talab etiladi;</li> <li>- olmosh va uning leksik, grammatik xususiyatlari, ma’no turlari, tuzilishiga ko‘ra turlarini bilish talab</li> </ul>

		etiladi;
5.3		<p>- fe'l va uning leksik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, ma'no turlari, o'timli va o'timsiz fe'llar, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, fe'l nisbatlari, fe'lning vazifa shakllari, otlashishi, ko'makchi fe'llar, fe'llarning munosabat shakllari (zamon, mayl, shaxs-son shakllari), tuzilishi, yasalishini bilish talab etiladi.</p>
5.4		<p><b>Yordamchi so'z turkumlari</b></p> <p>- ko'makchilar va ularning ma'nolari, sof va vazifadosh ko'makchilar, ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarining shakllari, ko'makchilarining gap bo'laklarini shakllantirishdagi ishtiroki, ko'makchilarining ayrim qo'shimchalar bilan ma'nodoshligi, uslubiy xususiyatlarini bilish talab etiladi;</p> <p>- bog'lovchilar va ularning vazifasiga ko'ra turlari (teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar), sof va vazifadosh bog'lovchilar, bog'lovchilarining qo'llanishi, gap bo'laklari va gaplarni bog'lashdagi ishtiroki, uslubiy xususiyatlarini bilish talab etiladi;</p> <p>- yuklamalar va ularning ma'no turlari, so'z-yuklamalar, qo'shimcha-yuklamalar, sof va vazifadosh yuklamalar, yuklamalarning uslubiy xususiyatlari, yuklamalarning imlosi bilan bog'liq bilimlar talab etiladi.</p>
		<b>Undov, taqlid, modal so'zlar</b>

		<ul style="list-style-type: none"> <li>- undov so‘zlar va ularning leksik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, ma’no turlarini bilish talab etiladi;</li> <li>- taqlid so‘zlar va ularning leksik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, ma’no turlarini bilish talab etiladi;</li> <li>- modal so‘zlar va ularning leksik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, ma’nolari, sof va vazifadosh modal so‘zlarni bilish talab etiladi.</li> </ul>
<b>6</b>		<b>Sintaksis</b>
	<b>6.1</b>	<b>Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi</b>

		<ul style="list-style-type: none"> <li>- grammatik bog‘lanish, gapda so‘zlarning teng va tobe bog‘lanishi, ularni bog‘lovchi vositalar, tobe va hokim so‘zlar, ularning o‘zaro bog‘lanish usullari (moslashuv, boshqaruv, bitishuv), so‘z birikmalarini va ularning turlari (otli va fe’lli; aniqlovchili, to‘ldiruvchili va holli birikmalar), so‘z birikmalarining tilning boshqa birliklaridan farqi, so‘z birikmalarini zanjirini bilish talab etiladi.</li> </ul>
	<b>6.2</b>	<b>Gap va gap bo‘laklari</b>
		<ul style="list-style-type: none"> <li>- gap, gapning grammatik asosi, kesimlik belgilari, gaplarning turlari (ifoda maqsadi, his-hayajonning ishtiroki hamda tuzilishiga ko‘ra) va ularning uslubiy xususiyatlari, sodda gaplar va ularning turlari (yig‘iq va yoyiq, to‘liq va to‘liqsiz gaplar), egasi yashiringan gaplar, shaxsi noma'lum gap, atov gap, so‘z-gaplarni bilish talab etiladi;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- gaplarni bo‘laklarga ajratish, gap bo‘laklari (ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol va ularning turlari), ifodalanishi, kesimga bevosita va bilvosita bog‘langan (mustaqil va nomustaqil) gap bo‘laklarini bilish talab etiladi.</li> </ul>
	<p><b>Uyushiq bo‘laklar</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- uyushiq bo‘laklar, ularning turlari, ularni o‘zaro bog‘lovchi vositalar, uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z (bo‘lak)ni bilish talab etiladi.</li> </ul>
	<p><b>Ajratilgan bo‘laklar</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ajratilgan bo‘laklar va ularning turlari, gap bo‘laklarini ajratish usullari (izohlash orqali, gap bo‘laklarining tartibini o‘zgartirish orqali ajratish)ni bilish talab etiladi.</li> </ul>
	<p><b>Gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan “bo‘laklar”</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- sodda va murakkab kiritmalar (kirish so‘zlar, kirish birikmalar, kirish gaplar) va ularning uslubiy xususiyatlarini bilish talab qilinadi;</li> <li>- undalmalar, ularning ifodalanishi, qo‘llanilishi, undalmali gaplar va ularning uslubiy xususiyatlarini bilish talab qilinadi.</li> </ul>
6.3	<p><b>Qo‘shma gap sintaksisi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- qo‘shma gap va qo‘shma gapni bog‘lovchi vositalar, qo‘shma gapning turlari (bog‘langan, bog‘lovchisiz, ergashgan qo‘shma gaplar, havola bo‘lakli qo‘shma gaplar; ularning turlari), qo‘shma</li> </ul>

		<p>gaplarning sodda gaplar bilan sinonimiyasini bilish talab etiladi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar, o‘zlashtirma gaplar, murakkab qo‘shma gaplar va ularning turlarini bilish talab etiladi.</li> </ul>
--	--	--

7	7.1	<b>Uslubshunoslik, til birliklarini qo‘llash uslubiyati</b>
		<ul style="list-style-type: none"> <li>- nutq uslublari va ularning turlarini bilish, til birliklaridan nutqda to‘g‘ri foydalana olish, uslubiy bo‘yoq hosil qilishda til birliklari orasidagi nozik farqlarni bilish talab etiladi.</li> </ul>
8	8.1	<b>Punktuatsiya (tinish belgilari)</b>
		<ul style="list-style-type: none"> <li>- tinish belgilari va ulardan yozma nutqda to‘g‘ri foydalanish qoidalarini bilish talab etiladi.</li> </ul>
9	9.1	<b>Xalq og‘zaki ijodi</b>
		<ul style="list-style-type: none"> <li>- folklor va uning janrlari, xalq qo‘shiqlari, maqollar, topishmoqlar, xalq ertaklari, xalq dostonlari (“Alpomish”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon”) va ulardagi qahramonlar talqini, asar sujeti yuzasidan darsliklarda berilgan ma’lumotlarni bilish talab etiladi.</li> </ul>
10	10.1	<b>“Avesto”. Qadimgi turkiy adabiyot. IX-XIV asrlardagi turkiy adabiyot</b>

		<p>- “Avesto” yodgorligi, O’rxun-Enasoy obidalari (“To‘nyuquq”, “Kul Tigin”), Imom Ismoil al-Buxoriy, Mahmud Koshg‘ariy , Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy,</p> <p>Ahmad Yassaviy, Nosiruddin (Nosiriddin) Rabg‘uziy, Pahlavon Mahmud, Sayfi Saroyi, Xorazmiy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy hayoti va ijodi yuzasidan darsliklar va majmualarda berilgan ma’lumotlarni bilish talab etiladi.</p>
11	11.1	<p><b>Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Xamsachilik an“anasi.</b></p>
		<p>- Alisher Navoiy hayoti va ijodi, xamsachilik tarixi, Navoiy “Xamsa”si va uning tarkibiga kiruvchi dostonlar, Navoiy lirikasi, “Mahbub ul-qulub” asari yuzasidan darsliklar va majmualarda berilgan ma’lumotlarni bilish talab etiladi.</p>
12		<p><b>XV-XIX asr adabiyoti</b></p>
	12.1	<p>- Husayniy, Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobur, Poshshoxo‘ja Abdulvahobxoja o‘g‘li Xoja,</p> <p>Abulg‘ozzi Bahodirxon, Turdi Farog‘iy, So‘fi Olloyor, Boborahim Mashrab, Xo‘janazar Huvaydo yuzasidan darsliklar va majmualarda berilgan ma’lumotlarni bilish talab etiladi.</p>
	12.2	<p>- Gulxaniy, Maxmur, Shermuhammad Munis, Amiriyy, Uvaysiy, Nodira, Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Rahimxon Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Dilshodi Barno, Anbar</p>

		Otin, Avaz O’tar hayoti va ijodi yuzasidan darsliklar va majmualarda berilgan ma’lumotlarni bilish talab etiladi.
13	13.1	<b>XX asr adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- So‘fizoda, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir, Zulfiya, Shuhrat, Turob To‘la, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Ozod Sharafiddinov, Xudoyberdi To`xtaboyev, To‘ra Sulaymon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Tohir Malik, O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod, Muhammad Yusuf hayoti va ijodi yuzasidan darsliklar va majmualarda berilgan ma’lumotlarni bilish talab etiladi;</li> <li>- mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti: mustaqillik davri nasri, mustaqillik davri she’riyati, mustaqillik davri dramaturgiyasi yuzasidan darsliklarda berilgan ma’lumotlarni bilish talab etiladi.</li> </ul>
14	14.1	<b>Jahon adabiyoti</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ezop, Firdavsiy, Rudakiy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy, Maxtumquli, Vilyam Shekspir, Jonatan Swift, Hans Kristian Andersen, Antuan de SentEkzyuperi, Janni Rodari, Robindranath Thokur, Haynrix Hayne, Aleksandr Pushkin, Sergey Yesenin, Abay, Ernest Seton-</li> </ul>

		Tompson, Jek London, Musa Jalil, Rasul Hamzatov, Nodar Dumbadze, Chingiz Aytmatov, Ibroyim Yusupov hayoti va ijodi yuzasidan darsliklar va majmualarda berilgan ma'lumotlarni bilish talab etiladi.
<b>15</b>	<b>15.1</b>	<p><b>Adabiyot nazariyasi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- badiiy adabiyotning tur va janrlari, she'riy tizimlar yuzasidan darsliklarda berilgan ma'lumotlarni bilish va topish talab etiladi;</li> <li>- badiiy san"atlar yuzasidan berilgan ma'lumotlarni bilish va ularni topa olish talab etiladi.</li> </ul>

**2-bo'lim. Ona tili va adabiyot fani bo'yicha qabul test sinovida  
abituriyentlarning tayyorgarlik darajasi tekshiriladigan talablar ro'yxati**

Birinchi ustunda talablarning kodi, ikkinchi ustunda abituriyentlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar keltirilgan.

<b>Talab kodi</b>	<b>Qabul test sinovida tekshiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar</b>
	<b>Biladi/ Tushunadi/ Bajara oladi</b>
<b>1</b>	<b>Ona tili</b>
<b>1.1</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, bog'lanishli</li> </ul>

	nutq, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalar, ularning muhim belgilarini bilib olish, izohlay bilish va shu tushunchalar bilan bog'liq grammatik atamalarni o'zlashtirish;
--	---

<b>1.2</b>	- o‘zbek adabiy tili grammatikasining me’yor va imkoniyatlarini bilish;
<b>1.3</b>	- nutq uslublarining chegara va imkoniyalarini bilish;
<b>1.4</b>	- og‘zaki va yozma nutqda sintaktik shakl yasovchi va lug‘aviy shakl yasovchi (so‘z o‘zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchi) qo‘sishimchalar, grammatik ma’no ifodalovchi vositalarni tanlay olish;
<b>1.5</b>	- sinonimik va uslubiy imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olish;
<b>1.6</b>	- gapda so‘z tartibiga rioya qilish, gap bo‘laklarini turli turkumga oid so‘zlar, otlashgan so‘zlar, so‘z birikmalari va iboralar vositasida ifodalay olish;
<b>1.7</b>	- gap turlaridan, undalmali, kirish so‘zli va birikmali, uyushiq bo‘lakli, ajratilgan izoh bo‘lakli gaplardan, qo‘shma gap turlaridan, ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olish;
<b>1.8</b>	- ona tilining ijtimoiy-madaniy hayotdagi mavqeyini, o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini bilish;
<b>1.9</b>	- o‘zbek adabiy tilining talaffuz me’yorlari, asosiy imlo qoidalarini bilish va nutqiy faoliyatda qo‘llash;
<b>1.10</b>	- ona tilidan egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash va boyitish;
<b>1.11</b>	- ona tilining lisoniy boyligi va xususiyatiga oid bilimlarni chuqr o‘zlashtirish, o‘zbek adabiy tilida so‘zlash va yozish malakalarini egallah;
<b>1.12</b>	- ona tili ifoda vositalarining imkoniyatlarini bilish va amalda ulardan to‘g‘ri foydalanish;
<b>1.13</b>	- nutq uslublarining xususiyatlarini farqlash va nutqiy vaziyat talabiga ko‘ra til vositalarini o‘rinli qo‘llay olish;

<b>1.14</b>	- so‘z tarkibi, ma’nosi, yasalishi va morfologik qurilishini tahlil qilish ko‘nikmasi hamda malakasiga ega bo‘lish;
<b>1.15</b>	- mustaqil fikrlash asosida turli tuzilish va mazmundagi gaplarni tuza olish va ularni sintaktik tahlil qilish;
<b>1.16</b>	- ona tilida o‘z fikrlarini lo‘nda va ravon ifodalay bilish, nutq mavzusining mazmuni va maqsadini asosli dalillar bilan bayon etalish;
<b>1.17</b>	- yozma ishlar va ish qog‘ozlarini yozishda ona tilining imlo va punktuatsion me’yorlariga amal qilish.
<b>2.</b>	<b>Adabiyot</b>
<b>2.1</b>	- matnni to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qiy olish;
<b>2.2</b>	- mumtoz adabiyot janrlari bilan zamonaviy adabiyot janrlarini farqlay olish;
<b>2.3</b>	- badiiy tasvir vositalari haqida matnga tayanilgan holda mustaqil fikr yuritish va tahlil qila olish;
<b>2.4</b>	- o‘qigan asaridan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olish;
<b>2.5</b>	- adabiy qahramonlarning xatti-harakatlariga munosabat bildira olish va uni asoslay bilish;
<b>2.6</b>	- yuksak didli va aqlan barkamol adabiy qahramonlarning xislatlarini olib bera olish;
<b>2.7</b>	- o‘rganilgan asarlarda tasvirlangan badiiy timsollar xususiyatiga xos bo‘lgan xisatlarni anglab, ularga munosabat bildira olish;
<b>2.8</b>	- o‘rganilgan asarlardagi adabiy qahramonlar xususiyatiga xos bo‘lgan fazilatlarga mustaqil fikr bildira olish;
<b>2.9</b>	- o‘rganilgan badiiy asarlar timsollarining tabiatidagi milliy xususiyatlarni anglay bilish;
<b>2.10</b>	- adabiyot nazariyasiga doir bilimlarni kitobxonlik amaliyotida

	mustaqil qo'llay olish;
<b>2.11</b>	- adabiy-tarixiy davrlarga va adiblar ijodiga to'g'ri baho bera olish.
<b>2.12</b>	- o'zbek adabiy-badiiy merosining jahon adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasini bilish;
<b>2.13</b>	- badiiy asarni g'oyaviy-badiiy jihatdan baholay bilish, yozuvchining hayotga munosabatini, uni ifodalashda tilning badiiy tasviriy vositalaridan foydalanish mahoratini farqlay olish;
<b>2.14</b>	- o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini ifodali o'qish, sharhlash, janr xususiyatlarini bilish;
<b>2.15</b>	- o'rganilayotgan asarning badiiy-estetik ahamiyatini tushunish va tahlil qila olish;
<b>2.16</b>	- asar qahramonlari haqida mustaqil va ijodiy fikrlay olish, ularga tavsif bera bilish;
<b>2.17</b>	- asar qahramonlarini umuminsoniy va milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan mustaqil baholay olish;
<b>2.18</b>	- o'zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan o'zaro aloqasini bilish.

**2018-yilda oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul test sinovini  
o'tkazish uchun Ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlari tafsiloti**

<b>Topshiriq №</b>	<b>Fan mazmuni tarkibi</b>	<b>Bo'lim kodlari</b>	<b>Talab kodlari</b>	<b>Murakka blik darajasi</b>
1.	<b>Til haqida umumiy ma'lumot. Fonetika.</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1, 5.1, 6.2	1.1, 1.2, 1.4, 1.8, 1.9, 1.10, 1.11, 1.12, 1.14	2

2.	<b>Grafika va orfografiya</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1	1.1, 1.9, 1.11, 1.17	1
3.	<b>Grafika va orfografiya</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1,	1.1, 1.2, 1.4, 1.9, 1.10, 1.11,	2

		5.1, 6.2	1.12, 1.13, 1.14, 1.17	
4.	<b>Leksikologiya va frazeologiya</b>	1.1, 3.1, 4.1, 5.1	1.1, 1.5, 1.9, 1.11	1
5.	<b>Leksikologiya va frazeologiya</b>	1.1, 3.1, 4.1, 5.1, 6.1, 7.1	1.1, 1.2, 1.3, 1.5, 1.9, 1.10, 1.11, 1.12, 1.13, 1.15, 1.16	3
6.	<b>Morfemika (so‘z tarkibi).</b> <b>So‘z yasalishi</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1, 5.1, 7.1	1.1, 1.4, 1.5, 1.14	2
7.	<b>Morfemika (so‘z tarkibi).</b> <b>So‘z yasalishi</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1, 5.1, 6.1, 7.1	1.1, 1.4, 1.5, 1.9, 1.10, 1.13, 1.14	3
8.	<b>Morfologiya. Mustaqil so‘z turkumlari (ot, sifat)</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 6.1	1.1, 1.2, 1.4, 1.9, 1.10, 1.14	1

9.	<b>Morfologiya. Mustaqil so‘z turkumlari (olmosh, son, ravish)</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 6.1, 6.2, 6.3	1.1, 1.2, 1.9, 1.10, 1.12, 1.13, 1.14	2
10.	<b>Morfologiya. Mustaqil so‘z turkumlari (fe'l)</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 6.1, 6.2, 6.3	1.1, 1.2, 1.4, 1.5, 1.9, 1.10, 1.11, 1.12	2
11.	<b>Morfologiya. Mustaqil so‘z turkumlari (fe'l)</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 6.1, 6.2, 6.3	1.1, 1.2, 1.4, 1.5, 1.10, 1.11, 1.12, 1.14	3
12.	<b>Morfologiya. Yordamchi so‘z turkumlari. Undov, taqlid, modal so‘zlar.</b>	1.1, 2.1, 3.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 7.1	1.1, 1.2, 1.5, 1.12	2
13.	<b>Sintaksis. Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi.</b>	4.1, 4.2, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 6.1	1.1, 1.2, 1.4, 1.5, 1.6, 1.10, 1.15, 1.16	2

14.	<b>Sintaksis. Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi.</b>	1.1, 3.1, 4.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 6.1, 6.2, 7.1	1.1, 1.2, 1.4, 1.5, 1.6, 1.7, 1.10, 1.11, 1.12, 1.15, 1.16	3
15.	<b>Sintaksis. Gap va gap bo‘laklari. Uyushiq bo‘laklar. Ajratilgan bo‘laklar. Gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan “bo‘laklar”.</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 6.2, 6.3	1.1, 1.6, 1.7, 1.15	2
16.	<b>Sintaksis. Gap va gap bo‘laklari. Uyushiq bo‘laklar. Ajratilgan bo‘laklar. Gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan “bo‘laklar”.</b>	1.1, 2.1, 3.1, 4.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 6.2, 6.3	1.1, 1.2, 1.4, 1.5, 1.6, 1.7, 1.10, 1.11, 1.12, 1.15, 1.16	3
17.	<b>Qo‘shma gap sintaksisi</b>	1.1, 4.1, 6.3	1.1, 1.2, 1.7, 1.15, 1.16	1
18.	<b>Qo‘shma gap sintaksisi</b>	1.1, 3.1, 4.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 6.1, 6.2, 6.3, 7.1	1.1, 1.2, 1.3, 1.4, 1.5, 1.7, 1.10, 1.11, 1.12, 1.15, 1.16	2

19.	<b>Uslubshunoslik. Til birliklarini qo'llash uslubiyati</b>	1.1, 3.1, 4.1, 5.1, 5.2, 5.3, 5.4, 7.1	1.1, 1.2, 1.3, 1.4, 1.5, 1.6, 1.7, 1.10, 1.11, 1.12, 1.13, 1.15, 1.16	2
20.	<b>Punktuatsiya</b>	5.4, 6.2, 6.3, 8.1	1.1, 1.7, 1.10, 1.12, 1.17	2
21.	<b>Xalq og'zaki ijodi</b>	9.1, 10.1, 11.1, 12.1, 13.1, 14.1, 15.1	2.1, 2.3, 2.5, 2.6, 2.7, 2.8, 2.9, 2.15, 2.16	1
22.	<b>"Avesto". Qadimgi turkiy adabiyot. IX-XIV asrlardagi turkiy adabiyot</b>	9.1, 10.1, 11.1, 12.1,	2.1, 2.2, 2.3, 2.5, 2.6, 2.7, 2.8, 2.9, 2.11, 2.13, 2.14,	2

		13.1, 14.1, 15.1	2.15, 2.16, 2.17	
23.	<b>Alisher Navoiy hayoti va ijodi.</b> <b>Xamsachilik an'anasi</b>	9.1, 10.1, 11.1, 12.1,	2.1, 2.2, 2.3, 2.5, 2.6, 2.7, 2.8, 2.9, 2.11, 2.13, 2.14,	2

		13.1, 14.1, 15.1	2.15, 2.16, 2.17	
24.	<b>XV-XIX asr adabiyoti</b>	9.1,  10.1,  11.1,  12.1,  12.2,  13.1,  14.1,  15.1	2.1, 2.2, 2.3,  2.5, 2.6, 2.7,  2.8, 2.9, 2.11,  2.13, 2.14,  2.15, 2.16,  2.17	2
25.	<b>XV-XIX asr adabiyoti</b>	9.1,  10.1,  11.1,  12.1,  12.2,  13.1,  14.1,  15.1	2.1, 2.2, 2.3,  2.5, 2.6, 2.7,  2.8, 2.9, 2.11,  2.12, 2.13,  2.14, 2.15,  2.16, 2.17,  2.18	2
26.	<b>XX asr adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti</b>	9.1,  10.1,  11.1,  12.1,  12.2,  13.1,  14.1,	2.1, 2.2, 2.3,  2.5, 2.6, 2.7,  2.8, 2.9, 2.11,  2.12, 2.13,  2.14, 2.15,  2.16, 2.17,  2.18	2

		15.1		
27.	<b>XX asr adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti</b>	9.1, 10.1, 11.1, 12.1, 12.2, 13.1, 14.1, 15.1	2.1, 2.2, 2.3, 2.5, 2.6, 2.7, 2.8, 2.9, 2.11, 2.12, 2.13, 2.14, 2.15, 2.16, 2.17, 2.18	2
28.	<b>XX asr adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti</b>	9.1, 10.1, 11.1,	2.1, 2.2, 2.3, 2.5, 2.6, 2.7, 2.8, 2.9, 2.11,	2
29.	<b>Jahon adabiyoti</b>	9.1, 10.1, 11.1, 12.1, 12.2, 13.1, 14.1, 15.1	2.1, 2.3, 2.5, 2.6, 2.7, 2.8, 2.9, 2.11, 2.12, 2.13, 2.14, 2.15, 2.16, 2.17, 2.18	2

30.	<b>Adabiyot nazariyasi</b>	9.1, 10.1, 11.1, 12.1, 12.2, 13.1, 14.1, 15.1	2.1, 2.2, 2.3, 2.10, 2.13, 2.14, 2.15	2
-----	--------------------------------	--	---	---

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

- 1 K. Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari (pedagogik o‘lchovlar, testologiya). Toshkent: Akademnashr, 2020.
- 2 Brookhart, S.M. (2014) How To Design Questions and Tasks To Assess Student Thinking, Alexandria, VA: ASCD, 2014.
- 3 Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.
- 4 Green, R. Statistical Analyses for Language Testers. New York, NY: Palgrave Macmillan, 2013.

**3-AMALIY MASHG'ULOT:**  
**TEST TOPSHIRIQLAR TURLARI. TURLI TIPDAGI TEST**  
**TOPSHIRIQLARINI YARATISHDA VA QO`LLASHDA YO`L**  
**QO`YILADIGAN XATOLAR.**

**REJA:**

1. *Yopiq test topshiriqlari turlari va ularni yaratishda yo'l qo'yiladigan xatolar.*
2. *Yopiq test topshiriqlari yordamida yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni tekshirish.*
3. *Ochiq test topshiriqlarini yaratish. Ochiq test topshiriqlari turlari va ularni yaratishda yo'l qo'yiladigan xatolar.*
4. *Ochiq test topshiriqlari yordamida yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni, tekshirish. shuningdek, amaliy va boshqa turdagи kompetensiyalarni tekshirish.*
5. *Ochiq test topshiriqlari uchun baholash mezonlari: turlari, yaratish va qo'llash.*

**Tayanch tushunchalar:** “Sub-domen, domen, konstrukt kodi, konstrukt, skan, explitsit, scanning, dixotom”.

2-spetsifikatsiya

**ONA TILI VA ADABIYOT FANLARIDAN MILLIY TEST TIZIMI UCHUN**  
**TEST SPETSIFIKATSİYASI**

Mazkur test spetsifikatsiyasining **maqsadi** umumta'lim fanlaridan milliy test tizimi doirasida ona tili va adabiyot fanlaridan talabgorlar bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test variantlari strukturasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat. Mazkur loyiha **ishchi hujjat** bo'lib,

aprobatsiyalar natijasida unga qo'shimchalar, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Ona tili va adabiyot fani bo'yicha test quyidagi **domen** va **konstruktarni** qamrab oladi:

<i>Domen</i>	<i>Sub-domen</i>	<i>Konstrukt kodi</i>	<i>Konstrukt</i>
Ona tili	Ona tilida o'qib tushunish	1.1.1	- matnda berilgan ma'lumotlarni topa olish va tushunish (matnni "skan" (scanning) qila olish): matnda konkret ifodalangan ma'lumotni (raqam, nom va hokazo) qidirib topish
		1.1.2	- explitsit (ochiq ifodalangan) ma'lumotni topa olish:
		1.1.2.1	- matnda bir yoki necha gaplarda ifodalangan ma'lumotlarni perefraza qila olish
		1.1.2.2	- o'z ma'nosida ishlatilgan leksik birliklarning ma'nosini tushunish
		1.1.3	- matnda berilgan ma'lumotlarni integratsiya qilish va xulosalar chiqarish:
		1.1.3.1	- matnning yoki uning qismlarining umumiyligi ma'nosini tushunish
		1.1.3.2	- matn qismlari orasidagi bog'liqlikni (masalan, xronologik, sabab – oqibat, xulosa – izoh va hokazo) tushunish
		1.1.3.3	- matnda implitsit (yashirin ifodalangan) ma'lumotlarni tushunish
		1.1.3.4	- ko'chma ma'noda ishlatilgan leksik

			birliklarning ma'nosini tushunish
		1.1.3.5	- matnda ishlatilgan sintaktik elemenlarning (bog'lovchi vositalar, olmoshlar, modal so'zlar va hokazo) matndagi vazifasini tushunish
		1.1.3.6	- matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'rtaqidagi bog'liqlarlarni tushunish
		1.1.4	- matnni tahlil qilsh va unga baho berish:
		1.1.4.1	- matnda ifodalangan ma'lumotlarning ishonchlilikiga baho berish
		1.1.4.2	- muallif maqsadini tushunish
		1.1.4.3	- muallif xulosalarining validligiga baho berish
Ona tili	Yozma savodxonlik	1.2.1	- berilgan kontekstga ma'no va uslub jihatidan mos leksik birliklarni tanlash
		1.2.2	- berilgan kontekstga ma'no va uslub jihatidan mos sintaktik birliklarni tanlash
		1.2.3	- imlo qoidalarini to'g'ri qo'llash
		1.2.4	- berilgan kontekstga ma'no va uslub jihatidan mos, yaxlit matn yarata olish
Adabiyot	Badiiy matnni tushunish	2.1.1	- berilgan asarning (parchaning) umumiy mazmunini tushunish
		2.1.2	- asar (parcha) matnida implitsit (yashirin ifodalangan) ma'noni tushunish
		2.1.3	- asardagi (parchadagi) obrazlarga tavsif berish
	Asarning	2.2.1	- asarda qo'llanilgan badiiy tasvir va

	badiiy xususiyatlarni tahlil qilish		ifoda vositalari hamda ularni qo'llashdan ko'zlangan maqsadni (ularning kitobxonga ta'sirini) tushunish
		2.2.2	- asarning lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarini hamda ularning maqsadini (kitobxonga ta'sirini) tushunish
		2.2.3	- badiiy matnga xos bo'lgan elementlarni topish va ularning maqsadini tushunish

Ona tilida o'qib tushunish va adabiyot domentlarida tekshiriladigan konstruktarning **kognitiv darajasi** quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja	Konstrukt
I	- matnda berilgan ma'lumotlarni topa olish va tushunish (matnni "skan" (scanning) qila olish): matnda konkret ifodalangan ma'lumotni (raqam, nom va hokazo) qidirib topish
II	- explitsit (ochiq ifodalangan) ma'lumotni topa olish - matnda berilgan ma'lumotlarni integratsiya qilish va xulosalar chiqarish - badiiy matnni tushunish
III	- matnda berilgan ma'lumotlarni integratsiya qilish va xulosalar chiqarish - asarning badiiy xususiyatlarni tahlil qilish

Qamrab olingan konstruktlar quyidagi turdagи **test topshiriqlari** yordamida tekshiriladi:

	Yopiq test topshirig'i:
--	-------------------------

1.1	bitta to‘g‘ri javobga ega muqobil javobli test topshirig‘i
1.2	bir nechta to‘g‘ri javobga ega muqobil javobli test topshirig‘i
1.3	moslashtirishni talab qiladigan test topshirig‘i
1.4	dixotom (“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” shaklidagi) test topshirig‘i
	Ochiq test topshirig‘i:
2.1	qisqa javoni talab qiladigan test topshirig‘i
2.2	kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig‘i

Testning yakuniy (imtihonda ishlatiladigan) variantiga kiritiladigan topshiriqlarning sifat parametrlari va yakuniy variantning ishonchlilik ko‘rsatkichlari empirik yo‘l bilan aniqlanib, testologiyada qabul qilingan normalarga mos kelishiga ishonch hosil qilinishi shart.

Konstruktarning test bo‘limlari kesimida qamrab olinishi quyidagi javdalda aks etgan:

<i>Test topshiriqlari</i>	<i>Konstruktlar</i>	<i>Test topshirig‘i turi</i>
<b>I BO‘LIM: O‘QIB TUSHUNISH</b>		
<b>1-qism (1—10 test topshiriqlari):</b> publisistik matn, 650-750 so‘z hajmida		
Matn manbalari: bosma yoki elektron OAVlar, ensiklopediyalar, to‘plamlar		
1	matnda berilgan ma’lumotlarni topa olish va tushunish	qisqa javoni talab qiladigan test topshirig‘i
2	explitsit (ochiq ifodalangan) ma’lumotni topa olish	bitta to‘g‘ri javobga ega muqobil javobli test topshirig‘i
3-5	matnning yoki uning qismlarining umumiyl ma’nosini tushunish	moslashtirishni talab qiladigan test topshirig‘i
6-7	matn qismlari orasidagi bog‘liqlikni tushunish	bitta to‘g‘ri javobga ega muqobil javobli test

		topshirig'i
8-9	matnda implitsit (yashirin ifodalangan) ma'lumotlarni tushunish ko'chma ma'noda ishlatilgan leksik birliklarning ma'nosini tushunish	dixotom ("to'g'ri – noto'g'ri" shaklidagi) test topshirig'i
10	matnni tahlil qilish va unga baho berish	kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i

**2-qism (11—20 test topshiriqlari):** ilmiy-ommabop yoki ilmiy matn hamda matn bilan bog'liq vizual ma'lumot (jadval, grafik, illyustratsiya, xarita va h.z),

650-750 so'z

Matn manbalari: bosma yoki elektron OAVlar, to'plamlar, ilmiy va o'quv nashrlari

Izoh: test topshiruvchidan maqolada muhokama qilingan mavzu bo'yicha maxsus bilimlar talab qilinmasligi kerak

11	matnning yoki uning qismlarining umumiy ma'nosini tushunish	bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i
12	o'z ma'nosida ishlatilgan leksik birliklarning ma'nosini tushunish	bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i
13	matnda ishlatilgan sintaktik elemenlarning matndagi vazifasini tushunish	bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i
14-16	matn qismlari orasidagi bog'liqlikni tushunish	moslashtirishni talab qiladigan test topshirig'i

17-18	matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'rtaqidagi bog'liqliklarni tushunish	bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i
19-20	matnda implitsit ma'lumotlarni tushunish	dixotom ("to'g'ri – noto'g'ri" shaklidagi) test topshirig'i

## II BO'LIM: ADABIYOT

### **1-qism (21-28 test topshiriqlari): Zamonaviy nasr yoki dramaturgiyani tushunish**

Matn manbasi: XX asr yoki zamonaviy o'zbek nasri yoki dramaturgiyasidan  
parcha, 800-900 so'z

Izoh: o'quvchiga tushunilishi qiyin bo'lgan, tekshirilayotgan konstruktning valid tekshirilishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan so'zlar va realiyalar izohi taqdim etiladi

21	berilgan asarning (parchaning) umumiylazmunini tushunish	bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i
22	asar (parcha) matnida implitsit (yashirin ifodalangan) ma'noni tushunish	bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i
23-25	asardagi (parchadagi) obrazlarga tavsif berish	moslashtirishni talab qiladigan test topshirig'i
26-28	asarda qo'llanilgan badiiy tasvir va ifoda vositalari hamda ularni qo'llashdan ko'zlangan maqsadni (ularning kitobxonga ta'sirini) tushunish asarning lingvistik (leksik,	bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i

	grammatik, fonetik) xususiyatlarini hamda ularning maqsadini (kitobxoniga ta'sirini) tushunish badiiy matnga xos bo'lgan elementlarni topish va ularning maqsadini tushunish	
--	--	--

### 2-qism (29-34 test topshiriqlari): Zamonaviy she'riyatni tushunish

Matn manbasi: XX asr yoki zamonaviy o'zbek she'riyatidan namuna

Izoh: o'quvchiga tushunilishi qiyin bo'lgan, tekshirilayotgan konstruktning valid tekshirilishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan so'zlar va realiyalar izohi taqdim etiladi

29-30	badiiy matnga xos bo'lgan elementlarni topish va ularning maqsadini tushunish	bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i
31-34	asarda qo'llanilgan badiiy tasvir va ifoda vositalari hamda ularni qo'llashdan ko'zlangan maqsadni (ularning kitobxonaga ta'sirini) tushunish asarning lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarini hamda ularning maqsadini (kitobxonaga ta'sirini) tushunish	moslashtirishni talab qiladigan test topshirig'i

### 3-qism (35-40 test topshiriqlari): Mumtoz adabiyotni tushunish

Matn manbasi: Mumtoz o'zbek yoki sharq adabiyotidan namuna

Izoh: o'quvchiga tushunilishi qiyin bo'lgan, tekshirilayotgan konstruktning valid

<p style="text-align: center;">tekshirilishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan so'zlar va realiyalar izohi taqdim etiladi</p>		
35	berilgan asarning (parchaning umumiy mazmunini tushunish)	bir nechta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i
36-40	asarda qo'llanilgan badiiy tasvir va ifoda vositalari hamda ularni qo'llashdan ko'zlangan maqsadni (ularning kitobxonga ta'sirini) tushunish asarning lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarini hamda ularning maqsadini (kitobxonga ta'sirini) tushunish	
<b>III BO'LIM: YOZMA SAVODXONLIK</b>		
41-50	berilgan kontekstga ma'no va uslub jihatidan mos leksik birliklarni tanlash berilgan kontekstga ma'no va uslub jihatidan mos sintaktik birliklarni tanlash imlo qoidalarini to'g'ri qo'llash	bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i
51	berilgan kontekstga ma'no va uslub jihatidan mos, yaxlit matn yarata olish (rasmiy hujjat)	kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i
52	berilgan kontekstga ma'no va uslub jihatidan mos, yaxlit matn	kengaytirilgan javobni talab qiladigan test

	yarata olish (esse)	topshirig'i
--	---------------------	-------------

Test uchun ajratilgan **umumiyligi** **vaqt** 180 daqiqani tashkil qiladi. Testga ajratilgan umumiyligi vaqtning test bo'limlarida **taqsimlanishi** quyidagi jadvalda aks etgan:

I	40 daqqa
II	70 daqqa
III	70 daqqa

Test topshiruvchilar yig'ishi mumkin bo'lgan jami **xom ballar** 129 balni tashkil qiladi. Xom ballarning test topshiriqlari kesimida taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

1-2 test topshiriqlari	2 ball
3-9 test topshiriqlari	14 ball
10 test topshirig'i	3 ball
11-20 test topshiriqlari	20 ball
21-25 test topshiriqlari	10 ball
26-28 test topshiriqlari	9 ball
29-30 test topshiriqlari	4 ball
31-34 test topshiriqlari	9 ball
35 test topshirig'i	2 ball

36-40 test topshiriqlari	10 ball
41-50 test topshiriqlari	10 ball
51 test topshirig'i	12 ball
52 test topshirig'i	24 ball

51 va 52 topshiriqlar uchun **baholash mezonlari**: yaratilgan matn mazmunining berilgan vaziyat(muammo)ga mosligi, matn uslubining to‘g‘ri tanlanganligi, maqsadga mos leksik va grammatik birliklarning to‘g‘ri tanlanganligi, matn yaxlitligi ta’minlanganligi. Har bir mezon uchun maksimal 3 balli kesimda deskriptorlar ishlab chiqiladi va aprobatasiyadan o‘tkaziladi. Test topshiruvchi yig‘ishi mumkin bo‘lgan maksimal ball 12ni (4ta mezon x 3 balldan) tashkil qiladi, 52 topshiriqda bu ball 2ga ko‘paytiriladi.

Test topshiruvchilarning har bir bo‘lim bo‘yicha va umumiyligi test bo‘yicha natijalari testologiyada qabul qilingan usullar yordamida, parallel variantlarning nisbiy qiyinlik darajasi hisobga olingan holda **yagona 100 ballik shkalada** hisoblanadi va e’lon qilinadi.

*3-topshiriq.* Ona tili va adabiyot fanidan Davlat test markazi tomonidan e’lon qilingan test topshiriqlari variantini tahlil qiling. Har bir test topshirig‘ida ayni shu turdagiligi test topshiriqlarini yaratish uchun qo‘yiladigan talablarning qay darajada bajarilganligiga e’tibor qarating.

*4-topshiriq.* O‘z fanningizdan yuqori dajadagi kognitiv ko‘nikmalarni tekshirishga mo‘ljallangan 5ta yopiq test topshirig‘i tuzing.

*5-topshiriq.* Quyida keltirilgan baholash mezonlarini tahlil qiling.

Adabiyot fani orqali o‘quvchilarda quyidagi **adabiyot faniga oid kompetensiyalarini (AK)** shakllantirish maqsad qilingan:

**AK1:** Asarning qaysi tur va janrga mansubligini aniqlay oladi va tushuntirib beradi;

**AK2:** Asardagi asosiy va ikkilamchi g‘oyalarini tushunadi, asarda ko‘tarilgan muammolarga o‘z munosabatini bildiradi;

**AK3:** Asardagi ochiq aytilgan fikrlarni va tagma’nolarni ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqara oladi va bu xulosalarini asoslab bera oladi;

**AK4:** Asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajrata oladi va asarning qurilishiga munosabat bildira oladi;

**AK5:** Asarning badiiy xususiyatlarini (asarda qo‘llanilgan badiiy vositalarni) tahlil qila oladi, ularning o‘quvchiga ta’siri haqida fikr bildira oladi;

**AK6:** Asardagi obrazlar tizimini tahlil qila oladi;

**AK7:** Badiiy adabiyot va san’atning boshqa turlari o‘rtasidagi bog‘liqlar va farqlarni tushunadi;

**AK8:** Asarning adabiy-tarixiy kontekstdagi ahamiyati haqida fikr bildira oladi.

Adabiyot fani orqali o‘quvchilarda rivojlantiriladigan kompetensiyalar va bu kompetensiyalarni baholash mezonlari:

5	4	3	2
---	---	---	---

**AK1:** Asarning qaysi tur va janrga mansubligini aniqlay oladi va tushuntirib beradi:

asarning qaysi tur va janrga mansubligini aniqlaydi,	asarning qaysi tur va janrga mansubligini aniqlaydi,	asarning qaysi tur va janrga mansubligini aniqlaydi, biroq nega aynan shu tur va janrga mansubligini belgilaydigan bir	asarning qaysi tur va janrga mansubligini aniqlay olmaydi
--	--	--	---

<b>qancha xususiyatlarini ko'rsatib bera oladi</b>	<b>yoki ikkita xususiyatini ko'rsatib bera oladi</b>	<b>olmaydi</b>	
--	--	----------------	--

**AK2:** Asardagi **asosiy** va **ikkilamchi g'oyalarini** tushunadi, asarda ko'tarilgan **muammolarga** o'z munosabatini bildiradi:

<b>asarning asosiy va ikkilamchi g'oyalarini</b> ajrata oladi, fikrini <b>asardan misollar</b> bilan asoslay oladi, asarda ko'tarilgan <b>muammolarga</b> <b>munosabat</b> bildira oladi <b>asoslaydi</b>	<b>asosiy va ikkilamchi g'oyalarini</b> ajrata oladi, asarda ko'tarilgan <b>muammolarga</b> <b>munosabat</b> bildira oladi	<b>asarning asosiy g'oyasini</b> ajrata oladi, asarda ko'tarilgan <b>muammoga</b> <b>munosabat</b> bildira oladi	<b>asarning asosiy g'oyasini</b> ajratishga harakat qiladi
---	---	---	---

**AK3:** Asardagi **ochiq aytilgan fikrlarni** va **tagma'nolarni** ilg'aydi, asardan **xulosalar** chiqara oladi va bu xulosalarini asoslab bera oladi:

<b>asarda ochiq aytilgan fikrlarni</b> va <b>tagma'nolarni</b> ilg'aydi hamda tushuntiib bera oladi, asardan tegishli <b>xulosalar</b> chiqara oladi, bu	<b>asarda ochiq aytilgan fikrlarni</b> va <b>tagma'nolarni</b> ilg'aydi hamda tushuntiib bera oladi, asardan tegishli <b>xulosalar</b> chiqara oladi	<b>asarda ochiq aytilgan fikrlarni</b> ilg'aydi hamda tushuntirib bera oladi, asardan tegishli <b>xulosalar</b> chiqara oladi	<b>asarda ochiq aytilgan fikrlarni</b> ilg'aydi
--	--	--	--

xulosalarini <b>hayot bilan</b> bog'laydi va <b>asoslab</b> bera oladi			
<b>AK4:</b> Asarning <b>syujetini</b> tushunadi, syujet <b>elementlarini</b> (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajrata oladi va asarning qurilishiga <b>munosabat</b> bildira oladi:			
asarning syujetini tushunadi, syujetning <b>elementlarini</b> asardan <b>ko'rsatib bera</b> oladi, asarning syujet qurilishiga <b>munosabat</b> bildira oladi va munosabatini <b>asoslaydi</b>	asarning syujetini tushunadi, syujetning <b>elementlarini</b> asardan <b>ko'rsatib bera</b> oladi, asarning syujet qurilishiga <b>munosabat</b> bildira oladi	asarning syujetini tushunadi, syujetning <b>elementlarini</b> asardan <b>ko'rsatib bera</b> oladi	asardagi <b>voqealar</b> <b>ketma-ketligini</b> qayta hikoya qilib bera oladi
<b>AK5:</b> Asarning <b>badiiy xususiyatlarini</b> (asarda qo'llanilgan badiiy vositalarni) tahlil qila oladi, ularning <b>o'quvchiga ta'siri</b> haqida fikr bildira oladi:			
asarda qo'llanilgan <b>badiiy vositalarni</b> topa oladi, bu vositalarning <b>badiiy effekti</b> (o'quvchiga ta'siri) haqida <b>o'z fikrini</b> bildiradi va fikrini	asarda qo'llanilgan <b>badiiy vositalarning bir qanchasini</b> topa oladi, bu vositalarning <b>badiiy effekti</b> (o'quvchiga ta'siri)	asarda qo'llanilgan <b>badiiy vositalardan bitta-ikkitasini</b> topa oladi, bu vositalarning <b>badiiy effekti</b> (o'quvchiga ta'siri)	asarda qo'llanilgan <b>badiiy vositalardan ayrimlarini</b> topa oladi

<b>asoslaydi</b>	haqida o‘z fikrini bildiradi	haqida o‘z fikrini bildiradi	
------------------	------------------------------	------------------------------	--

**AK6:** Asardagi obrazlar tizimini tahlil qila oladi:

asardagi obrazlarga <b>munosabat</b> bildiradi, munosabatini asardan        va hayotdan <b>misollar</b> bilan <b>asoslab</b> <b>beradi,</b> muallifning    bu obrazlarni yaratishda qo‘llagan <b>lisoniy</b> (lingvistik)    va <b>badiiy vositalarini</b> tahlil qila oladi	asardagi obrazlarga <b>munosabat</b> bildiradi, munosabatini asardan        va hayotdan <b>misollar</b> bilan <b>asoslab</b> <b>beradi,</b> muallifning    bu obrazlarni yaratishda qo‘llagan <b>lisoniy</b> (lingvistik)    va <b>badiiy</b> <b>vositalaridan</b> <b>ayrimlarini</b> ko‘rsatib       bera oladi	asardagi obrazlarga <b>munosabat</b> bildiradi, munosabatini asoslashga <b>harakat qiladi</b>	asardagi obrazlarni <b>sanab</b> bera oladi
---	--	---	---

**AK7:** Badiiy adabiyot va **san’atning boshqa turlari** o‘rtasidagi bog‘liqlar va farqlarni tushunadi:

adabiyot        va <b>san’atning</b> <b>boshqa turlari</b> (musiqa,       teatr,	adabiyot        va <b>san’atning</b> <b>boshqa turlari</b> (musiqa,       teatr,	adabiyot        va <b>san’atning</b> <b>boshqa turlari</b> (musiqa,       teatr,	adabiyot        va <b>san’atning</b> <b>boshqa turlari</b> (musiqa,       teatr,
---	---	---	---

kino, rangtasvir, haykaltaroshlik va hokazo) o‘rtasidagi <b>o‘xhashlik</b> va <b>farqlarni</b> tushuntirib bera oladi, xususan, konkret bir badiiy asar (obraz) va uning san’atning boshqa turlaridagi talqinlariga <b>munosabat</b> bildira oladi, bu munosabatini <b>misollar</b> bilan asoslaydi	kino, rangtasvir, haykaltaroshlik va hokazo) o‘rtasidagi <b>o‘xhashlik</b> va <b>farqlarni</b> tushuntirib bera oladi, xususan, konkret bir badiiy asar (obraz) va uning san’atning boshqa turlaridagi talqinlariga <b>munosabat</b> bildira oladi	kino, rangtasvir, haykaltaroshlik va hokazo) o‘rtasidagi <b>ayrim o‘xhashlik</b> va <b>farqlarni</b> tushuntirib bera oladi	kino, rangtasvir, haykaltaroshlik va hokazo) o‘rtasidagi <b>bitta-ikkita</b> <b>o‘xhashlik</b> va <b>farqlarni</b> sanab bera oladi
--	---	--	--

**AK8:** Asarning **adabiy-tarixiy kontekstdagi ahamiyati** haqida fikr bildira oladi:

(Izoh: ushbu kompetensiya yuqori (9-10-11 sinflarda shakllantiriladi)

Asarning <b>adabiy-tarixiy kontekstdagi ahamiyati, yozuvchining ijodida tutgan o‘rnii va adabiy tafakkurning</b>	Asarning <b>adabiy-tarixiy kontekstdagi ahamiyati, yozuvchining ijodida tutgan o‘rnii haqida fikr bildira</b>	Asarning <b>adabiy-tarixiy kontekstdagi ahamiyati, yozuvchining ijodida tutgan o‘rnii haqida fikr bildira oladi,</b>	Asarning <b>adabiy-tarixiy kontekstdagi ahamiyati</b>
--	---	--	---

<b>rivojlanishidagi o'rni</b> haqida fikr bildira oladi, fikrini aniq <b>faktlar</b> bilan va bir qancha badiiy asarlarni <b>solishtirish</b> orqali asoslay oladi	fikrini aniq <b>faktlar</b> bilan asoslay oladi		
--	---	--	--

Ushbu kompetensiyalarni baholash o'quv yili davomida **og'zaki va yozma** shakllarda (insho, annotatsiya, taqriz, esse, maqola, referat yozdirish, shuningdek, test orqali) amalga oshirilishi mumkin. Kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi adabiyot darslarida o'rganilishga va o'quvchilar mustaqil o'qishi uchun tavsiya qilingan **asarlar** misolida baholanadi, bunda bir asar misolida **bitta yoki bir necha kompetensiya** baholanishi mumkin. O'quv yili oxirida kompetensiyalarni **kompleks** tarzda o'quvchilarga **notanish asar** misolida (asarning o'quvchilarga yosh, til va boshqa jihatlardan mosligini hisobga olgan holda) **yozma** tarzda baholash tavsiya qilinadi. Baholashda birinchi navbatda o'quvchilar ishining **originalligi**, **mustaqil** fikrning mavjudligi, tayyor manbalardan (darslik, internet va hokazo) **ko'chirilmaganligi**, shu bilan birga lozim o'rinnlarda **qo'shimcha** manbalardan foydalanilganligi hisobga olinishi lozim.

*6-topshiriq.* O'z fanning doirasida 3ta ochiq test topshirig'i tuzing va bu topshiriqlarni baholash mezonlarini ishlab chiqing.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

1. Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.
2. Green, R. Statistical Analyses for Language Testers. New York, NY: Palgrave Macmillan, 2013.
3. Haladyna, T. and Rodriguez, M. Developing and Validating Test Items. London – New York: Routledge, 2013.
4. Kubiszyn, T. and Borich, G. (2013) Educational Testing and Measurement: Classroom Application and Practice. Hoboken, NJ: Wiley, 2013.
5. Воробьева, С. В. Современные средства оценивания результатов обучения в общеобразовательной школе. Изд. 2-е, пер. и доп. Москва: Юрайт, 2019.
6. Звонников, В. И., Челышкова, М. Б. Современные средства оценивания результатов обучения. Изд. 5-е, пер. и доп. Москва: Академия, 2013.

**4-AMALIY MASHG'ULOT:**  
**TIL TA'LIMINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS**  
**XUSUSSIYATLARI.**

**REJA:**

1. *Til ta'limini baholashda statistik tahlilning ahamiyati.*
2. *Test topshiriqlarining sifat ko'rsatchilari va ularni hisoblash usullari.*
3. *Mezonga mo'ljallangan testlarda test topshiriqlari tahlili.*
4. *Test o'tkazish va uning natijalarini qayta ishslash*

*Tayanch tushunchalar:* “Mezon, statistik tahlil, sifat ko'rsatchilar, hisoblash usullar”

*Topshiriq.* Quyida berilgan jadval asosida har bir test topshirig'ining sifat parametrlarini va shu topshiriqlarni o'z ichiga olgan test variantining ishonchlilik darajasini hisoblang.

Test topshiruvchi ID #										
	Q01	Q02	Q03	Q04	Q05	Q06	Q07	Q08	Q09	Q10
1000048	0	1	1	1	1	1	1	1	1	1
1000006	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
1000010	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
1000044	1	1	1	1	1	1	0	1	1	1
1000049	1	1	0	1	1	1	0	1	1	1
1000051	0	1	1	1	1	1	1	0	1	1
1000023	0	1	1	1	1	1	0	1	1	1
1000050	0	1	0	1	0	1	0	1	0	1
1000002	1	1	1	1	0	1	0	1	1	1
1000001	1	1	0	1	1	1	0	0	1	1

1000013	1	1	0	1	1	1	0	1	0	1
1000037	1	1	1	1	0	1	0	1	0	1
1000041	0	1	0	1	1	1	0	0	0	1
1000007	1	0	1	1	1	1	0	0	1	1
1000028	1	1	1	0	1	1	0	0	1	1
1000009	1	1	1	1	0	1	0	0	0	1
1000027	0	1	1	1	0	1	0	1	1	1
1000047	1	1	0	1	0	1	0	1	0	1
1000005	1	1	1	1	1	1	0	0	1	1
1000046	1	1	1	0	1	1	0	0	0	0

*Topshiriq.* Testda adolat va shaffoflik tamoyillarini hisobga olgan holda, o‘z faningizda yakuniy nazoratni o‘tkazish qoidalarini hamda uning natijalarini hisoblash va e’lon qilish qoidalarini tuzing.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

1. Звонников, В. И., Челышкова, М. Б. Современные средства оценивания результатов обучения. Изд. 5-е, пер. и доп. Москва: Академия, 2013.
2. Кирейцева, А. Н. Азбука тестирования. Санкт-Петербург: Златоуст, 2013.
3. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013.  
– 175 pp.
4. Mitchell H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.

## V. KEYSLAR BANKI




**Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi.** “Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### **Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi.**

1. Testologiya nima?
2. Test ingliz tilidagi ma`nosi?
3. Test orqali domen o‘lchanishiga misol keltiring.
4. Kodifikator jadvalining ustunlari...
5. Test topshiruvchilar quyidagi natijalar qayd etishdi:
6. Ushbu natijalar ketma-ketligida modani toping.
7. Test topshiruvchi testda 40 ball oldi. Testning standart xatosi 2,5. 96% holatda test topshiruvchining haqiqiy bahosi ... oralig ‘ida bo‘ladi.
8. Ishonchlilik – bu ... Validlik tushunchasi tadrijini bir qancha bosqichlari?
9. Validlik turlari?
10. Sifatli test topshirig‘ini ishlab chiqish qanday jarayon.
11. Test qanday vosita?

## VI. GLOSSARY



<b>Termin</b>	<b>O’zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi tarjimasi</b>
<b>Approbation</b>	<p>Har bir yangi ishlab chiqilgan test topshirig‘i maxsus sinovdan o’tkazilishi lozim. Bu sinov aprobatsiya deb ataladi va u testning validligi (layoqatliligi) va ishonchlilagini aniqlash maqsadida o’tkaziladi. Ushbu sinov natijalariga asosan zarur hollarda test topshiriqlariga o‘zgartirishlar kiritiladi. Aprobatsiya kelajakda shu testni topshirishi muqarrar bo‘lgan mo‘ljaldagi muayyan aholi (populyatsiya) vakillari orasida o’tkazilishi shart. Masalan, oliv ta’lim muassasalariga kirish testlarida foydalaniладigan test topshiriqlari xuddi test sinovidagi kabi variant holiga keltirilib, shu testni topshirish uchun tayyorgarlik ko‘rayotgan kollej yoki litseylar bitiruvchilari orasida sinovdan o’tkaziladi. Aprobatsiyada har bir test</p>	<p>-Each newly developed test task must be tested separately. This test is called an approbation and is performed to determine the validity (validity) and reliability of the test. Based on the results of this test, changes will be made to the test items as needed. The approbation must be performed on a specific population (population) for which it is inevitable that the test will be performed in the future. For example, test items used in higher education entrance exams are made in the same way as in the test, and are tested among college or high school graduates who are preparing to take the test. At least 50 students must answer each test in the approbation.</p>

	variantiga kamida 50 nafar o‘quvchi javob berishi kerak	
<b>Population</b>	Bir xil xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida kishilar (masalan, mamlakatdagi ingliz tilidan test topshiruvchi barcha o‘quvchilar) guruhini ifodalovchi maxsus statistik atama	A special statistical term that refers to a group of individuals with the same characteristics (e.g., all students taking the English language test in the country)
<b>An alternative answer</b>	Muqobil javobli test topshiriqlarida savoldan keyin beriladigan 4 ta (a, b, c, d) javoblardan biri. Qoida bo‘yicha muqobil javoblar bitta to‘g‘ri javob va uchta noto‘g‘ri, ya’ni chalg‘ituvchi javoblardan iborat bo‘ladi. Kombinatsiyali test topshiriqlarida esa muqobil javoblar 4 tadan ko‘p bo‘lishi ham mumkin. Bunday testlarda to‘g‘ri javoblar soni ham 1 tadan ko‘p bo‘ladi (qarang: 9-10-betlar).	-One of the 4 (a, b, c, d) answers given after the question in the alternative answer test tasks. As a rule, the alternative answers consist of one correct answer and three incorrect answers, ie misleading answers. In combination tests, there may be more than 4 alternative answers. In such tests, the number of correct answers is more than 1 (see pages 9-10).
<b>Misleading answers</b>	-Test topshirig‘iga berilgan noto‘g‘ri muqobil javoblar.	- Incorrect alternative answers to the test task.
<b>Reliability</b>	-Test natijalarining qay darajada haqiqatga yaqinligini	-Indicator of the accuracy of test results. For example, the

	<p>ifodalovchi ko‘rsatkich. Masalan, o‘quvchining muayyan bir testda qo‘lga kiritgan bali boshqa kuni xuddi shu testga o‘xshash bo‘lgan testda qo‘lga kiritgan baliga qanchalik yaqin bo‘lsa, bu testning ishonchlilik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.</p>	<p>closer a student's score is in a particular test to a similar test the next day, the higher the reliability of that test.</p>
<b>Discrimination index</b>	<p>-Test topshirig‘ining muayyan o‘quv fani bo‘yicha turlicha bilim va qobiliyat darajalariga ega bo‘lgan sinaluvchi shaxslarni farqlash, tabaqlashtirish qobiliyatining miqdoriy tavsifi (-1 dan +1 gacha o‘zgaradi).</p>	<p>Quantitative description of the ability to differentiate, differentiate between test subjects with different levels of knowledge and skills in a particular subject of the test task (varies from -1 to +1).</p>
<b>Approbation ko‘lami</b>	<p>-Mo‘ljaldagi muayyan aholining (populyatsiyaning) qay darajada qamrab olinganligi. Yangi ishlab chiqilayotgan testlar kelajakda shu testlarni topshiruvchi aholi (populyatsiya) vakillari o‘rtasida sinovdan o‘tkazilishi muhimdir. Shu sababli aprobatasiyalarda mana shu</p>	<p>-How much of the target population is covered? It is important that the new tests are tested in the future among the population that will take these tests. Therefore, the approbations focus on covering as many students as possible in this population group.</p>

	aholi (populyatsiya) guruhidagi o‘quvchilarni iloji boricha to‘laroq qamrab olishga alohida e’tibor qaratiladi.	
<b>Validity</b>	-Testning ko‘zda tutilgan qobiliyat yoki bilimni baholab bera olish darajasi. Test o‘zi maqsad qilib olgan vazifani (masalan, muayyan fan bo‘yicha o‘quvchi bilimini aniqlash) qay darajada to‘g‘ri va aniq bajara olishini ifodalovchi tushuncha.	-The level of ability to assess the intended ability or knowledge of the test. A test is a measure of how accurately and precisely a student is able to perform a task (for example, determining a student's knowledge of a particular subject).

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI



## **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз.1-жилд.–Т.:“Ўзбекистон”,2017.–592 б.

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябр “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5850-сон Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

## **III. Maxsus adabiyotlar**

8. K. Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari (pedagogik o‘lchovlar, testologiya). Toshkent: Akademnashr, 2020.
9. Brookhart, S.M. (2014) How To Design Questions and Tasks To Assess Student Thinking, Alexandria, VA: ASCD, 2014.

10. Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.
11. Green, R. Statistical Analyses for Language Testers. New York, NY: Palgrave Macmillan, 2013.
12. Haladyna, T. and Rodriguez, M. Developing and Validating Test Items. London – New York: Routledge, 2013.
13. Kubiszyn, T. and Borich, G. (2013) Educational Testing and Measurement: Classroom Application and Practice. Hoboken, NJ: Wiley, 2013.
14. Воробьева, С. В. Современные средства оценивания результатов обучения в общеобразовательной школе. Изд. 2-е, пер. и доп. Москва: Юрайт, 2019.
15. Звонников, В. И., Чельшкова, М. Б. Современные средства оценивания результатов обучения. Изд. 5-е, пер. и доп. Москва: Академия, 2013.
16. Кирейцева, А. Н. Азбука тестирования. Санкт-Петербург: Златоуст, 2013.
17. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. – 175 pp.
18. Mitchell H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
19. Mitchell H.Q., Marilena Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
20. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooks Account, 2015. – 134 pp.

#### **IV.Elektron ta'lim resurslari**

21. <http://lex.uz>
22. <http://lib.bimm.uz>
23. <http://natlib.uz>
24. <http://ziyonet.uz>
25. <https://www.futurelearn.com/subjects/language-courses/linguistics>

26. <https://ru.coursera.org/courses?query=linguistics>
27. <https://www.birmingham.ac.uk/postgraduate/courses/distance/english/applied-linguistics.aspx>
28. <https://www.intuit.ru/studies/courses/1023/300/info>
29. [http://koi.tspu.ru/koi\\_books/samolyuk/](http://koi.tspu.ru/koi_books/samolyuk/)
30. <https://www.intuit.ru/studies/courses/14593/1290/info>
31. [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)
32. [www.testology.in](http://www.testology.in)

## VIII. TAQRIZ



**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI DOTSENTI  
K. JALILOV TOMIDAN TAYYORLANGAN "TA'LIMIDA  
BAHOLASH NAZARIYASI VA METODOLOGIYASI" NOMLI FAN  
DASTURI VA O'QUV-USLUBIY MAJMUAGA**

**T A Q R I Z**

Mazkur fan dasturi bakalavr ta'lif yo'naliishiga mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston ta'lif tizimida birinchi marotaba fansifatida kiritilmoqda. Fan ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'tilib, mavzular ham alla qachon dunyo mamlakatlarida samara bergen qamrovdan tanlangan. Ushbu fan dasturidagi mavzularni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talaba hozirgi zamon pedagogikasi va metodikasidagi asosiy qarashlar va yonashuvlarni o'zlashtirgan bo'lishi talab qilinadi. Bu fan pedagoglarni zamonaviy tilshunoslik qo'lga kiritayotgan eng so'nggi yutuqlar bilan tanishtiradi, ularni til hodisalarini inson omili bilan bog'lab o'rganishga o'rgatadi.

Fan dasturiga baholash nazariyasiga kirish, validlik, ishonchlilik,adolat, test topshiriqlari yaratish, yopiq testlar, til bilimini baholashning o'ziga xos xususiyatlari: retseptiv ko'nikmalar, til bilimini baholashning o'ziga xos xususiyatlari: produktiv ko'nikmalar, standartlarni belgilash, oliy ta'limga saralash testlari: xalqaro tajriba, tillar bo'yicha xalqaro test tizimlari, xalqaro monitoring tizimlari, baholashning ta'siri kabi mavzular ta'lif tizimini yanada isloh qilish uchun yordam beradi. Fan dasturi hamda o'quv-uslubiy majmuada fanni o'tishda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, "FSMU", "Blits-surov", "Tushunchalar tahlili", "Keys-stadi" kabilalar ham taqdim etilgan. Mazkur pedagogik texnologiyalar ta'lif sifatini oshirishda, nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishda yordam berishi shubhasiz. Xullas, mazkur fan dasturi "**Ta'limida baholash nazariyasi va metodologiyasi**" faniga qo'yiladigan me'yoriy talablarga to'la javob beradi. Uni amaliyotga tavsiya qilish mumkin.

B.Mengliyev

TDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori



**TOSHDO'TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARKAZIDA  
O'QITILADIGAN  
“O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI”  
YO'NALISHI KURSI O'QUV DASTURIGA  
TAQRIZ**

“O'zbek tili va adabiyoti” yo'nalishi o'z maqsad va vazifalariga ega, albatta. Buning ijrosi uchun esa kredit modul tizimida dasturda ko'rsatilgan fanlarni dunyo ilm-faniga mos ravishda tashkil etish lozim bo'ladi. Fanlararo integratsiya, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qitish va bilim olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo'llash – bu davr talabi sanaladi. “Lingvovidaktika”, “Adabiyot o'qitishni yangilash metodikasi”, “Til ta'limiga psixolingvistik yondashuv”, “Semantikaning dolzarb muammolari”, “Jahon adabiy ta'limining ilmiy–nazariy asoslari”, “Ta'limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” kabi fanlarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlash zarur.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejali asosida shakkantirilgan bo'lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Dasturda har bir fanning qisqacha tavsifi, amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari, shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan.

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajarishga yo'naltirilgani katta ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan hamda mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanishning tavsiya etilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga har bir tavsiya qilingan fanlar kesimida nazariy, maxsus ilmiy adabiyotlarning tavsiya qilingani ham tinglovchilar ilmiy-metodologik saviyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foydalanish yuzasidan ham zarur tavsiyalar berilgandigini alohida ta'kidlash mumkin.

Umuman olganda, mazkur dasurni ta'lif jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

**Filologiya fanlari doktori**

**S.Normamatov**





T.C.  
İSTANBUL ÜNİVERSİTESİ REKTÖRLÜĞÜ  
Dil Merkezi Başkanlığı



14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi kursi o'quv dasturiga

#### **TAQRIZ**

Qayta tayyorlash va malakani oshirish kurslarining asosiy maqsadi ta'lif sifatini yanada oshirish, ta'lif jarayoniga yangi ta'lif texnologiyalarni, ayniqsa noan'anaviy ta'lif metodlarini joriy etish, jahoning yetakchi oliy ta'lif dargohlarida erishilgan yutuq va tajribalarni o'zlashtirishdan iborat.

Shu ma'noda "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun tayyorlangan o'quv dasturi yuqorida sanab o'tilgan maqsad-vazifalarni to'liq qamrab olgan deyish mumkin.

"Kursning maqsad va vazifalari" qismida asosiy vazifa tarzida pedagoglarning ijodiy-innovatsion faoliik darajasini oshirish, maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning zamonaviy usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabilarning belgilanishi diqqatga sazovordir.

O'quv dasturining 1-moduli "Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar" deb nomlangan. Ushbu modulda kredit modul tizimi va o'quv jarayonlarini tashkil etish, tinglovchilarining ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirish, jumladan, pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, Science Direek, Mendeley tizimlari asosida yanada takomillashtirish masalalariga diqqat qaratilgan. Darhaqiqat, bu talab va shartlar amalga oshirilganda, aniqrog'i pedagog-tinglovchilarda bunday malaka va ko'nikmalar shakllanganda uning dunyo pedagogikasi bilan integratsiyasi yanada oshadi, shuningdek, uning ta'lifini olgan talabalarning ilmiy saviyasi risoladagidek bo'ladi.

2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish" deb nomlangan.

Vebinar, onlayn ma'ruza, "blended learning", "Slipped classroom" kabi zamonaviy pedtexnologiya asoslarini o'zlashtirib, ta'lif jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan ushbu modul ham maqsad-vazifalarning aniqligi va zarurligi nuqtai nazaridan ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har yetuk pedagog o'z fani doirasidagi muhim ma'lumotlarni ingliz tilida bilishi va fikrlarini og'zaki va yozma ravishda yetkaza olishi davr talabidir. Modulning 2-qismida ana shu masalaga ham alohida e'tibor berilgan.

3-modul "Mutaxassislik fanlari"ga ajratilgan bo'lib, bu modulda til va tafakkur munosabatlari, semantika, jahon adabiy ta'limidagi konstruktivizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlarga o'rinn ajratilgan. Adabiyotshunoslik va adabiyot o'qitishga doir yangiliklarning milliy ta'limga tatbiq etilishi, shuningdek, badiiy matnni tahlil etishning interfaol usullarini o'zlashtirish hamisha ijobjiy natija beradi. Mazkur modelda shu kabi masalalarining aks etganligini ijobjiy yutuq sifatida alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilarni inobatga olib mazkur dasturni ta'lif jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez,

*Filologiya fanlari doktori, İstanbul universiteti professori*